2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 183 (1782), 2026-yil 4-sentabr, juma

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

O‘ZBEKISTON VA AQSH O‘RTASIDAGI STRATEGIK SHERIKLIKNI MUSTAHKAMLASH MASALALARI KO‘RIB CHIQILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev AQSH Kongressi senatori, Senatdagi Markaziy Osiyo bo‘yicha kokus hamraisi Stiv Deynsni qabul qildi.



Uchrashuv avvalida AQSH senatori davlatimiz rahbari va xalqimizni mamlakat mustaqilligining 35 yilligi bilan samimiy tabriklab, tinchlik-osoyishtalik, farovonlik va ravnaq tiladi.

O‘zbekiston va AQSH o‘rtasidagi strategik sheriklikni yanada mustahkamlash hamda parlamentlararo hamkorlikni rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqildi.

So‘nggi yillarda ikki tomonlama hamkorlikni har qachongidan ham yuqori darajaga ko‘tarishga erishilgani, muloqotlar va delegatsiyalar almashinuvi jadal sur’at kasb etgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirishga alohida e’tibor qaratildi. Energetika, muhim minerallar, transport, qishloq xo‘jaligi, raqamli texnologiyalar va sanoat yo‘nalishlarida yirik loyihalar izchil amalga oshirilmoqda.

Hududlar o‘rtasida, xususan, senator vakili bo‘lgan Montana shtati bilan aloqalarni yanada rivojlantirish istiqbollariga alohida urg‘u berildi.

“C5+1” formatidagi hamkorlik hamda xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

O‘zA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISH BO‘YICHA ISHLAR YANGICHA TASHKIL ETILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 3-sentabr kuni kambag‘allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirish bo‘yicha ishlarni yangi bosqichga olib chiqish masalalari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda kambag‘allikni qisqartirish, aholini daromad manbalari bilan ta’minlash va mahalla darajasida iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu maqsadlar uchun hududlarga katta vakolat, moliyaviy resurs va infratuzilmaviy imkoniyatlar berildi, har bir oila bilan manzilli ishlash tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Natijada yil boshida 5,8 foizni tashkil etgan kambag‘allik darajasi bugungi kunga kelib 3,9 foizga tushdi. Ehtiyojmand aholi soni 2 million 200 ming nafardan 1,5 million nafarga kamaydi. Ishlar to‘g‘ri tashkil etilgan 49 ta tuman va 3 ming 429 ta mahalla ishsizlik va kambag‘allikdan xoli hududga aylanib bormoqda.

Shu bilan birga, hududlar kesimida natijalar bir xil emasligi ko‘rsatib o‘tildi.

So‘nggi uch yilda mahallalardagi tadbirkorlik loyihalari uchun 314 trillion so‘m resurs ajratildi. Lekin bir xil miqdorda mablag‘ olgan hududlarda kambag‘allikni qisqartirish samaradorligi keskin farq qilayotgani tahlillar orqali ko‘rsatildi.

Masalan, Sharof Rashidov va Qarshi tumanlariga 2 trillion 300 milliard so‘mdan kredit resursi berilgan. Sharof Rashidov tumanida mazkur mablag‘lar hisobiga 30 ming nafar aholi kambag‘allikdan chiqarilgan bo‘lsa, Qarshi tumanida 13 ming nafar ehtiyojmandning sharoiti yaxshilangan.

Shu bois, kredit ajratishning o‘zi yakuniy natija sifatida qaralmasligi, har bir loyiha qancha doimiy ish o‘rni yaratgani va qancha oilaning barqaror daromad manbaiga ega bo‘lgani bilan baholanishi belgilandi.

Yig‘ilishda joylarda natijaga erishishga to‘sqinlik qilayotgan omillar ham tahlil qilindi. Xususan, hokim yordamchilari va mahalla bankirlarining barchasi ham biznes loyihalarini shakllantirish, moliyaviy instrumentlarni to‘g‘ri tanlash va tadbirkor bilan uning g‘oyasidan tayyor biznesgacha ishlash ko‘nikmasiga ega emasligi qayd etildi.

So‘nggi bir yilda hududlarda tashkil etilgan 86 mingta kichik korxonaning 15 mingtasi faoliyatini to‘xtatgan. Bankdan kredit olib, biznesini kutilgan darajada yo‘lga qo‘ya olmagan 62 ming nafar fuqaro kreditlarni qaytarishda qiynalmoqda.

Shu munosabat bilan aholi va tadbirkorlarga faqat moliyaviy resurs taklif etish emas, balki bozor, texnologiya, kasb, biznes reja va sotuv zanjirini ham qamrab olgan kompleks yechim berish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi.

Bu borada Xorazm viloyatida o‘tkazilgan o‘rganishlar misol qilib keltirildi. Prezident topshirig‘iga muvofiq, iqtisodiy kompleks rahbarlari ikki hafta davomida viloyatdagi 81 ming nafar kambag‘al aholi, ya’ni 19 ming oilaning sharoitini o‘rgandi. Ushbu oilalarda 12 ming nafar ishsiz va 10 ming nafar daromadi past aholi borligi aniqlandi.

Ayni paytda Xorazmdagi tadbirkorlar qurilish sohasiga 4 ming, xizmatlar sohasiga 3 ming va sanoatga 2,5 ming nafar ishchi izlamoqda. Mavjud bo‘sh ish o‘rinlari va kasbga tayyorlash imkoniyatlarini o‘zaro bog‘lash orqali kambag‘al oilalardagi 10-15 ming nafar aholi daromadini oshirish mumkinligi qayd etildi.

Shuningdek, o‘rganilgan ehtiyojmand oilalarda 48 ming nafar bola borligi, ularni hozirdan kasb-hunar va zamonaviy ko‘nikmalarga yo‘naltirish muhimligi ta’kidlandi. Yoshlar yetakchilari, hokim yordamchilari va xotin-qizlar faollariga maktablar, texnikumlar va o‘quv markazlarida bunday oilalar farzandlari uchun qo‘shimcha to‘garaklar tashkil etish vazifasi belgilandi.

Xorazmda kambag‘al oilalardagi 10 mingdan ziyod ayol farzand parvarishi bilan band. Shu bois, bola parvarishlayotgan ota-onalar uchun uyida yoki mahallaning o‘zida daromadli mehnat qilish imkoniyatlarini kengaytirish, farzandlarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish orqali ularning mehnat bozoriga qaytishiga sharoit yaratish zarurligi qayd etildi.

Xorazm misolidagi tahlillar barcha hududlarga taalluqli ekani ta’kidlanib, kambag‘allik bilan ishlash bo‘yicha mutlaqo yangi tizim joriy etilishi belgilandi.

Endilikda har bir viloyat va tumanda hokim boshchiligida maxsus shtablar tashkil etiladi. Banklar, bandlik idoralari va iqtisodiy kompleksning boshqa tashkilotlari ushbu shtablar bilan birgalikda aholi bandligi va daromadini oshirish masalalarini joyning o‘zida hal qiladi.

Viloyat, tuman va shahar hokimlari iqtisodiy kompleks bilan birgalikda haftaning uch kunini bevosita kambag‘allik va bandlik masalalariga bag‘ishlaydi.

Yangi tizimning eng muhim jihati esa moliyaviy resurslar va qaror qabul qilish vakolatlarining katta qismi tuman darajasiga tushirilishi bo‘ladi. Oilaviy va yoshlar tadbirkorligi bo‘yicha imtiyozli kredit resurslarini boshqarish vakolati tuman shtablariga o‘tkaziladi.

Hozir oilaviy tadbirkorlik uchun 1 trillion 370 milliard so‘m, yoshlar tadbirkorligi uchun 450 milliard so‘m resurs mavjud. Tuman shtablari mahalliy sharoit va loyihaning xususiyatidan kelib chiqib, kimga qancha kredit berish, uning muddati va to‘lov grafigini biznes turiga moslashtirish masalalarini hal qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Kredit, lizing, faktoring, kafolat, sug‘urta, aylanma mablag‘ va boshqa moliyaviy instrumentlar tadbirkorlik loyihasining o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqib qo‘llanadi. Dehqonchilik, savdo, xizmatlar va boshqa yo‘nalishlarda daromadning shakllanish muddati turlicha bo‘lgani uchun moliyalashtirish shartlari ham shunga mos bo‘lishi kerakligi ta’kidlandi.

Kooperatsiyaga asoslangan loyihalarga qo‘shimcha imkoniyatlar yaratiladi. Lider tadbirkor 10 ta oila bilan kooperatsiya qilsa, 500 million so‘mgacha, 100 ta oila bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ysa, 5 milliard so‘mgacha garovsiz kredit olishi mumkin bo‘ladi.

Kredit tarixida kechikish bo‘lgan ehtiyojmand aholining tashabbuslari ham individual baholanadi. Istiqbolli loyihalarni imtiyozli moliyalashtirish imkoniyati yaratiladi.

Davomi 2-betda

SAMARQAND KONFERENSIYASI: YOSHLAR – ISLOHOTLARNING KUZATUVCHISI EMAS, FAOL ISHTIROKCHISI

Har qanday islohotning haqiqiy qiymati uning bugungi natijasida emas, ertangi avlod taqdirida namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda, yangi O‘zbekistondagi islohotlarning eng muhim jihatlaridan biri yoshlarga munosabatning tubdan o‘zgarganidadir. Bugun yoshlar davlat siyosatining obyekti emas, balki uning faol ishtirokchisi, tashabbuskori va harakatlantiruvchi kuchi sifatida maydonga chiqmoqda.



Bu o‘zgarish tasodifiy emas. Uning zamirida yosh avlodning huquq va manfaatlarini himoya qilish, salohiyatini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan izchil davlat siyosati va mustahkam huquqiy asoslar turibdi. Jumladan, davlatimiz rahbari 2016-yilda imzolagan “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonun yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalardagi faolligini oshirish uchun muhim huquqiy poydevor vazifasini bajarmoqda. Shuningdek, yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bu siyosatni izchil mexanizmlar bilan boyitib bormoqda.

Davomi 2-betda

SHHT – DAVR TAQOZO ETAYOTGAN MULOQOT MAYDONI

Mamlakatimiz yetakchisi Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarovning taklifiga binoan 31-avgust – 1-sentabr kunlari Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlar rahbarlari kengashining navbatdagi yig‘ilishi hamda “SHHT plyus” formatidagi uchrashuvda ishtirok etdi.

Kun tartibiga muvofiq tashkilotning 25 yillik faoliyati davomida erishilgan yutuqlar, barqarorlikni mustahkamlash, hamkorlikni kengaytirish va birgalikdagi taraqqiyotni davom ettirish borasidagi istiqbolli vazifalar muhokama qilindi. Eng dolzarb xalqaro va mintaqaviy masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

Majlisda delegatsiyalar rahbarlari Prezidentimizni va O‘zbekiston xalqini mustaqillik kuni bilan samimiy tabrikladi. Davlatimiz rahbarining keng ko‘lamli islohotlari, mamlakat barqarorligi, xavfsizligi va ravnaqini mustahkamlash, xalq farovonligini yuksaltirishga qaratilgan pragmatik va ochiq tashqi siyosatini yuksak baholadi.

Davomi 2-betda



MUSTAQILLIK – KURASH, ISHONCH VA MILLIY YUKSALISH

“Inson nimasiz yashay olmaydi?” degan savolga ilm-fan bir olam farazlarni keltirishi mumkin. Lekin aslini olganda hamma narsang muhayyo bo‘lsa-yu, erkin bo‘lmasang, o‘zingni hayot sanash mushkul. Buni dono xalqimiz, mutafakkir ajdodlarimiz va buyuk tariximiz ko‘p bora isbotlagan. Ular erksizlikni oltin qafasga, yurtdan ayrilishni esa yuzi qarolikka tenglashtirgan. Qarangki, bu haqiqatlar asrlar o‘tib, zamonlar o‘zgarsa-da, hali-hanuz purma’noligini yo‘qotmay kelmoqda.



Vatanning suratini qalbda chizish, uni yurakka joylash uchun ham erk kerak. Qo‘rqmasdan bayrog‘ingni ko‘tarish, madhiyangni eng baland ovozda kuylash, boshingni tik tutish, qaddingni rostlash, bobong izidan yurish, onang allasini tinglash, bolang uchun o‘z tilingda ertak aytish, baxtdan kuylash, hatto g‘amdan yig‘lash uchun ham sen aynan o‘zing bo‘lishing kerak. Bu oddiy, lekin ulkan baxtlarga chinakam erksiz erishib bo‘lmaydi. Shu bois, mustaqillik haqida balandparvoz gapirishdan ko‘ra, uni qalbdan his qilishning o‘zi ba’zan yetarli bo‘ladi.

Davomi 3-betda

BIZNES BILAN OCHIQ MULOQOT

IQTISODIY MUHITNING SHAKLLANISH YO‘LI

XX asrning oxiri va XXI asr boshida jahon iqtisodiyoti tub o‘zgarishlar pallasiga qadam qo‘ydi. Globallashuv jarayonlari davlatlarning iqtisodiy chegaralarini nisbiylashtirib, kapital, zamonaviy texnologiyalar, tovar va xizmatlarning xalqaro harakatini mislsiz darajada tezlashtirdi.

Bugungi dunyoda mamlakatlarning iqtisodiy qudrati faqat yer osti boyliklari, arzon ishchi kuchi yoki xomashyo ishlab chiqarish hajmi bilan emas, balki xususiy tashabbus uchun yaratilgan sharoit, mulk huquqi daxlsizligi, halol raqobat muhiti, mustahkam investitsiya kafolatlari hamda davlat institutlari samaradorligi bilan belgilanmoqda.

Ana shunday murakkab va mas’uliyatli tarixiy sharoitda — 1991-yilda o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgan O‘zbekiston oldida bir vaqtning o‘zida ikkita ulkan vazifa bor edi: birinchisi — mustaqil davlatchilik asoslarini barpo etish, ikkinchisi — markazlashgan ma’muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotidan milliy bozor iqtisodiyotiga o‘tish.

Davomi 4-betda

KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISH BO‘YICHA ISHLAR YANGICHA TASHKIL ETILADI

Boshlanishi 1-betda

Kambag‘allik jamg‘armasidagi 240 milliard so‘m, Bandlik jamg‘armasidagi 100 milliard so‘m va uchta “daftar”dagi 760 milliard so‘m mablag‘ tuman shtablari ixtiyoriga beriladi. Tadbirkorlik kompaniyasining kompensatsiyalar uchun yil yakuniga qadar nazarda tutilgan 300 milliard so‘mlik resursi ham shtablar orqali yo‘naltiriladi.

Shu tariqa tumanlar ixtiyoriga jami 3 trillion 200 milliard so‘m resurs berilib, mablag‘larning aniq natija berishi asosiy mezon etib belgilanadi.

Moliyalashtirish mexanizmlarini iqtisodiyotdagi tez o‘zgarishlarga moslashtirish uchun ham yangi yondashuv joriy etiladi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Markaziy bank hududlar salohiyati, biznes muhiti va bozor talabidan kelib chiqib, kredit, subsidiya hamda kompensatsiya mexanizmlarini har chorakda takomillashtirib boradi.

Shu bilan birga, mahalladagi hokim yordamchilari va bankirlarning salohiyatini oshirishga alohida e’tibor qaratiladi. 8 ming 992 ta mahalladagi hokim yordamchilari faoliyati natijadorlik va tashabbuskorlik mezonlari asosida qayta baholanadi.

Ikki oy muddatda maxsus o‘quv markazi tashkil etilib, unga xorijdan mutaxassislar jalb qilinadi. Hokim yordamchilari va mahalla bankirlari loyiha tayyorlash, biznes modelini hisoblash, moliyalashtirish vositalarini tanlash va tadbirkor bilan ishlashga o‘qitiladi. Eng yaxshi natija ko‘rsatgan mutaxassislarni Xitoy, Yaponiya va Turkiyada malaka oshirishga yuborish, namunali xodimlarni qo‘shimcha rag‘batlantirish choralari belgilandi.

Yig‘ilishda tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirish tizimi ham ko‘rib chiqildi. Endilikda tumanlar tadbirkorlik infratuzilmasi loyihalarining bevosita buyurtmachisiga aylanadi va zarur mablag‘lar to‘g‘ridan to‘g‘ri joylarga yo‘naltiriladi. Tuman shtablariga loyihalash, qurilish va sifat nazoratini xususiy sektorga berish huquqi ham beriladi.

Kambag‘allikni qisqartirishda ijtimoiy himoya mexanizmlari ham yangicha yondashuv asosida takomillashtiriladi. Ijtimoiy himoya milliy agentligiga yil yakuniga qadar ehtiyojmand aholini Ijtimoiy reyestrga kiritish mezonlarini qayta ko‘rib chiqish topshirildi.

Bunda faqat oila daromadi emas, balki surunkali kasallik, nogironlik, ko‘p bolalilik, oila a’zolarining xorijda ishlayotgani va boshqa ijtimoiy omillarni hisobga oladigan ko‘p o‘lchovli baholash tizimiga o‘tiladi.

Mamlakat bo‘yicha kambag‘allik darajasi 3,9 foizga tushgan bo‘lsa-da, uch yoshgacha farzandi bor oilalarda bu ko‘rsatkich o‘rtacha 6,5 foizni tashkil etmoqda. Shu bois, bola parvarishlayotgan ota-onalarni uyida yoki mahallaning o‘zida ishli va daromadli qiladigan tizim yo‘lga qo‘yiladi.

Ijtimoiy reyestrdagi ishlaydigan onalarga farzandi bir yoshga to‘lguniga qadar Ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasidan nafaqa to‘lanadi. Mehnatga layoqatsiz ehtiyojmand oilalar uchun esa barqaror daromad manbai yaratadigan ijtimoiy paketlar amaliyoti davom ettiriladi. Joriy yil ushbu maqsadlarga 300 milliard so‘m ajratilgan bo‘lib, bunday ko‘mak olgan 11 ming oilaning qariyb yarmida daromad sezilarli oshgani qayd etildi.

Kelgusi yildan Ijtimoiy reyestrga kiritilgan oilalar farzandlarining davlat va xususiy bog‘cha to‘lovlari, o‘quv markazlarida ta’lim olish xarajatlari, yo‘lkirasi hamda oliy ta’lim muassasasi yotoqxonasi uchun to‘lovlar vaucher asosida qoplab beriladi. Vaucher 12 oy muddatga berilib, oila Ijtimoiy reyestrdan chiqarilganidan keyin ham belgilangan muddat oxirigacha amal qiladi.

Yig‘ilishda hudud rahbarlari oldiga yil yakuniga qadar 350 ming nafar aholini doimiy ishga joylashtirish, yana 1 million nafar aholining daromadini oshirish va 230 mingta oilani kambag‘allikdan chiqarish vazifalari qo‘yildi.

Har bir yo‘nalish bo‘yicha aniq mexanizm va harakatlar algoritmini ishlab chiqish, mahalla darajasigacha mas’ullarni belgilash vazifasi qo‘yildi. Kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha katta amaliy tajriba to‘plagan mamlakatlar, jumladan, Xitoy yondashuvi asosida aholi bilan bevosita ishlaydigan xodimlar uchun aniq ko‘rsatmalar tayyorlanadi.

Yangi tizimda asosiy mas’uliyat va resurslar joylarga tushirilib, mahalladagi har bir imkoniyatni ish o‘rni hamda daromad manbaiga aylantirish, har bir ehtiyojmand oila bilan uning sharoiti va salohiyatidan kelib chiqib ishlash ustuvor vazifa bo‘ladi.

Yig‘ilish yakunida mutasaddilar va hududlar rahbarlarining axboroti tinglanib, belgilangan vazifalarni tizimli va natijador qilib tashkil etish bo‘yicha tegishli ko‘rsatmalar berildi.

O‘zA

Nuqtayi nazar

SHHT – DAVR TAQOZO ETAYOTGAN MULOQOT MAYDONI

Boshlanishi 1-betda



Mels JUNAYDULLAYEV, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Yig‘ilishda davlatimiz rahbari nutq so‘zlab, dunyoda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar sharoitida BMT va mintaqaviy tuzilmalarning roliga to‘xtalib o‘tdi. Xususan, “SHHT — 2040: umumiy taraqqiyot makoni” konseptual qarashini ishlab chiqishni taklif etdi. Mazkur konseptual qarash investitsiyalar, texnologiyalar va bilimlar erkin almashiladigan, yirik infratuzilma hamda sanoat loyihalari amalga oshiriladigan, mintaqalar, biznes hamda odamlar o‘rtasidagi to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqalar kengayib boradigan, o‘zaro bog‘liq va barqaror makonni shakllantirishga xizmat qiladi.

Muhim ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida SHHT Sanoat kooperatsiyasi xaritasini ishlab chiqish belgilandi. Shuningdek, SHHT Taraqqiyot bankini ishga tushirish hamda Hukumat rahbarlari kengashi transport, energetika, sanoat kooperatsiyasi va raqamli infratuzilma sohalaridagi ustuvor loyihalar portfelini shakllantirishni boshlash maqsadga muvofiq qayd etildi. Iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq xavf-xatarlarga javoban SHHT doirasida oziq-ovqat, suv va energetika xavfsizligi masalalari bo‘yicha yagona kun tartibini tuzish zarurligi ta’kidlandi.

Sammit kun tartibida sun’iy intellekt sohasidagi hamkorlikka ham alohida e’tibor qaratildi. O‘zbekiston rahbari Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinning Sun’iy intellekt sohasida hamkorlik bo‘yicha butunjahon tashkilotini tashkil etish to‘g‘risidagi tashabbusini qo‘llab-quvvatlab, SHHTning mazkur texnologik alyans bilan hamkorlik o‘rnatishini taklif qildi. Shuningdek, tashkilot doirasida ochiq ko‘p tilli ma’lumotlar korpusini yaratish hamda sun’iy intellekt va yangi raqamli yechimlar bo‘yicha forum o‘tkazish tashabbuslari ilgari surildi.

Xalqaro transport yo‘laklarining keng tarmoqli tizimini shakllantirish maqsadida a’zo davlatlarning temir yo‘l makonlari integratsiyasi bo‘yicha kengash ta’sis etish, logistika infratuzilmasini rivojlantirishni muvofiqlashtirish va milliy transport tizimlarining choksiz o‘zaro bog‘lanishini ta’minlash ustuvor vazifalardan ekani qayd etildi.

Davlatimiz rahbari “BMT adolatli dunyo tartibotining asosiy bo‘g‘ini sifatida: “SHHT plyus” davlatlarining ko‘p qutbli dunyoni shakllantirishga qo‘shayotgan hissasi” mavzusidagi “SHHT plyus” formatidagi uchrashuvda ishtirok etdi.

Kun tartibidan kelib chiqib, qator istiqbolli takliflar ilgari surildi. Xususan, “SHHT plyus” formatini barqaror o‘sish, yuqori texnologiyalarni joriy etish, iqlimga moslashish, inson kapitalini rivojlantirish, hammabop ta’lim va yoshlarni qo‘llab-quvvatlash masalalari bo‘yicha mintaqalararo muloqot maydoni sifatida rivojlantirish taklif qilindi.

Qayd etilganidek, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda mintaqaviy tashkilotlar salohiyatidan yanada faol foydalanish ustuvor vazifalardan. Tajriba almashish mexanizmi sifatida tabiatdan foydalanish, “yashil” energetika, raqamli xizmatlar hamda sog‘liqni saqlash sohalarida mintaqalararo loyihalar va texnologiyalarning Ochiq bankini shakllantirish taklif etildi.

“SHHT plyus” formati — davr taqozo etayotgan muloqot maydoni. Zero, mamlakatlar va mintaqalar o‘rtasidagi mushtaraklik nuqtasi qancha ko‘p bo‘lsa, barqarorlik hamda o‘zaro ishonch uchun asos shunchalik mustahkam bo‘ladi.

Xalqaro anjuman

SAMARQAND KONFERENSIYASI:

YOSHLAR – ISLOHOTLARNING KUZATUVCHISI EMAS, FAOL ISHTIROKCHISI



Otabek SOBITOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti raisi

Boshlanishi 1-betda

Bugun yurtimiz aholisining qariyb chorak qismini 14-30 yoshlilar tashkil etayotgani, har yili minglab yosh oilalar shakllanayotgani masalaning ko‘lamini yanada yaqqol ko‘rsatadi. Demak, yoshlar siyosati muayyan davrga mo‘ljallangan ijtimoiy dastur emas, mamlakatning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyasidir.

Shu ma’noda, yoshlar masalasi ta’lim sifati, iqtisodiy faollik, huquqiy madaniyat, parlament nazorati va xalqaro hamkorlikni bir nuqtada birlashtiradigan taraqqiyot mezonidir. Bugungi vazifa ularga faqat imkoniyat berish bilan cheklanmay, g‘oyasini jamoat manfaatiga xizmat qiladigan amaliy natijaga aylantirishdan iborat.

Ana shu yondashuvning mantiqiy davomi sifatida 2026-yilda taqdim etilgan “Yangi O‘zbekiston yoshlari — 2030” strategiyasida ta’lim, bandlik, tadbirkorlik, kasbiy tayyorgarlik, xorijiy tillar, raqamli ko‘nikmalar, madaniyat, sport, volontyorlik, salomatlik va qaror qabul qilishda ishtirok kabi yo‘nalishlarning yagona tizimga birlashtirilishi ko‘zda tutilmoqda. Bu esa yoshlarga oid davlat siyosatining oddiy qo‘llab-quvvatlash choralaridan yoshning shaxsiy salohiyatini jamiyat va davlat taraqqiyotiga yo‘naltirishga qaratilgan kompleks tizimga aylanayotganini ko‘rsatadi.

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, mamlakatimizda islohotlarning ilk kunlaridan yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning orzu va intilishlarini ro‘yobga chiqarish davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab olingan. Bu yondashuvni faqat ta’lim yoki kasb nuqtayi nazaridan emas, siyosiy mas’uliyat nuqtayi nazaridan ham tushunish kerak. Zero, kelajakka tayyor yigit-qiz o‘z huquqini biladigan, qonunni tushunadigan, jamiyat muammolariga befarq bo‘lmaydigan va qaror qabul qilish jarayoniga o‘z hissasini qo‘sha oladigan yoshdir.

Yosh parlamentariylarning global platformasi

O‘zbekiston tashabbuslarining xalqaro e’tirofi ham ushbu islohotlarning mantiqiy davomidir. BMT Bosh Assambleyasi Prezidentimiz ilgari surgan “Ijtimoiy rivojlanishni jadallashtirishda parlamentlarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi rezolyutsiyani qabul qildi. 2020-yilda BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida ilk bor bildirilgan g‘oyani 167 davlat qo‘llab-quvvatladi, 61 davlat esa hammuallif bo‘ldi. Hujjatda Toshkentda o‘tkazilgan Parlamentlararo ittifoqning 150-Assambleyasi va Toshkent deklaratsiyasi e’tirof etilib, parlamentlarning kambag‘allikni qisqartirish, sifatli ta’lim, munosib bandlik hamda ayollar va yoshlarning qarorlardagi ishtirokini kengaytirishdagi o‘rni belgilandi. Bu yangi O‘zbekiston parlament diplomatiyasining amaliy natijasidir.

2026-yil 4-6-sentabr kunlari qadimiy Samarqand shahri yana bir bor yirik xalqaro siyosiy muloqot maydoniga aylanadi. Aynan shu kunlarda Parlamentlararo ittifoq tomonidan tashkil etilayotgan XII Yosh parlamentariylar global konferensiyasi bo‘lib o‘tadi.

Parlamentlararo ittifoq tomonidan 2014-yildan buyon muntazam tashkil etib kelinayotgan Yosh parlamentariylar global konferensiyasi bugun dunyo parlamentlari o‘rtasida yoshlar diplomatiyasining eng nufuzli maydoniga aylandi. Mazkur anjuman nafaqat parlamentlararo hamkorlikni mustahkamlash, balki zamonaviy tahdid va chaqiriqlar yuzasidan umumiy yondashuvlarni ishlab chiqish, yoshlarning qonun ijodkorligidagi ishtirokini kengaytirish hamda davlatlar o‘rtasida o‘zaro ishonch va konstruktiv muloqotni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Shu jihatdan konferensiyaning aynan O‘zbekistonda o‘tkazilishi mamlakatimizdagi demokratik islohotlar, parlament tizimini takomillashtirish hamda yoshlarga oid davlat siyosatining xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilayotganining amaliy ifodasidir.

Samarqand konferensiyasi “Beqaror davrda barcha uchun inson huquqlari, adolat va qadr-qimmatni tiklash” mavzusida o‘tkazilishi bejiz emas. Bugun dunyoda geosiyosiy ziddiyatlar, qurolli mojarolar, iqtisodiy beqarorlik, ekologik muammolar, migratsiya jarayonlari, raqamli texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanishi hamda sun’iy intellektning hayotimizga kirib kelishi inson huquqlarini ta’minlashga mutlaqo yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Ayniqsa, ushbu jarayonlar yoshlar hayoti, ta’lim olishi, bandligi, siyosiy faolligi va kelajagiga bevosita ta’sir ko‘rsatayotgani konferensiya kun tartibidagi masalalarning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Ayniqsa, konferensiya yakunida ishlab chiqiladigan tavsiya va xulosalar inson huquqlari, adolat, barqaror rivojlanish, raqamli transformatsiya hamda yoshlarning siyosiy va iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish borasida parlamentlar faoliyatini yanada takomillashtirish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qilishi kutilmoqda. Shu ma’noda, mazkur anjuman nafaqat bugunning muammolarini muhokama qilish, balki kelajak taraqqiyotiga xizmat qiladigan amaliy tashabbuslarni ilgari surish uchun ham muhim siyosiy platformadir.

Konferensiyaning muvaffaqiyati ishtirokchilar soni yoki nufuzi bilangina emas, balki ochiq bahs sifati, ishlab chiqilgan tavsiyalarning aniqligi va ularni amalga oshirish mexanizmlari bilan baholanadi. Samarqanddan yangraydigan har bir tashabbus tinchlik, inson qadri va avlodlar oldidagi mas’uliyat g‘oyasini mustahkamlashi zarur.

> **O‘zbekiston tashabbuslarining xalqaro e’tirofi ham ushbu islohotlarning mantiqiy davomidir. BMT Bosh Assambleyasi Prezidentimiz ilgari surgan “Ijtimoiy rivojlanishni jadallashtirishda parlamentlarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi rezolyutsiyani qabul qildi. 2020-yilda BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida ilk bor bildirilgan g‘oyani 167 davlat qo‘llab-quvvatladi, 61 davlat esa hammuallif bo‘ldi.**

Kelajak siyosiy yetakchilari maktabi

Parlamentda yoshlar ishtirokining eng katta strategik qiymati bugungi muammoni hal qilish bilan birga ertangi siyosiy kadrlarni tayyorlashidir. Shu nuqtayi nazardan, Yoshlar parlamenti faqat maslahat instituti emas, balki amaliy siyosiy maktab sifatida ham ahamiyatli.

Yoshlar parlamentidagi 150 a’zoning Qonunchilik palatasi deputatlariga biriktirilishi “ustoz-shogird” tamoyilini amaliy mazmun bilan boyitmoqda. Yoshlar deputatlar bilan birga saylov okruglariga chiqadi. Aholi bilan muloqot qiladi. Murojaatlarni o‘rganadi, hududiy muammolarni ko‘radi va yechim izlash jarayonida ishtirok etadi.



> **Yoshlar parlamentidagi 150 a’zoning Qonunchilik palatasi deputatlariga biriktirilishi “ustoz-shogird” tamoyilini amaliy mazmun bilan boyitmoqda. Yoshlar deputatlar bilan birga saylov okruglariga chiqadi.**
> **Aholi bilan muloqot qiladi. Murojaatlarni o‘rganadi, hududiy muammolarni ko‘radi va yechim izlash jarayonida ishtirok etadi. Bu tajriba yoshlarga faqat parlament qoidalarini emas, siyosatning eng muhim mezonini — jamoat manfaatini anglashni o‘rgatadi. Siyosiy yetakchilik minbarda chiroyli gapirishdan emas, muammoni eshitish, mas’uliyatni zimmaga olish, dalil asosida qaror taklif qilish va natija uchun javob berishdan boshlanadi.**



Bu tajriba yoshlarga faqat parlament qoidalarini emas, siyosatning eng muhim mezonini — jamoat manfaatini anglashni o‘rgatadi. Siyosiy yetakchilik minbarda chiroyli gapirishdan emas, muammoni eshitish, mas’uliyatni zimmaga olish, dalil asosida qaror taklif qilish va natija uchun javob berishdan boshlanadi.

Biz uchun yoshlar parlamentidagi eng muhim vazifalardan biri ham shu: yoshlarni “gapiradigan” emas, “fikrlaydigan”, faqat tanqid qiladigan emas, yechim taklif qiladigan, tayyor yo‘lni kutadigan emas, tashabbus ko‘rsatadigan siyosiy avlod sifatida tayyorlash.

Bunday maktabda yoshlar qonun loyihasini o‘qish, uning ijtimoiy ta’sirini baholash, manfaatlar to‘qnashuvini ko‘rish, ekspert bilan muloqot qilish va o‘z pozitsiyasini dadillik bilan himoya qilishni o‘rganadi. Bu ko‘nikmalar ertangi parlament, davlat boshqaruvi va fuqarolik jamiyati uchun katta intellektual kapitaldir.

Prezidentimiz yoshlarning azmu shijoati va imkoniyatlariga ishonch bildirib kelayotgani biz uchun katta siyosiy bo‘nak, aslida. Buni oqlash esa yoshlarning vazifasi: ishonchni bilimga, imkoniyatni tashabbusga, tashabbusni natijaga aylantirish.

Yetakchilikni tarbiyalashda xalqaro muloqotning o‘rni beqiyos. Yosh parlamentariy boshqa mamlakat vakilini tinglar ekan, o‘z pozitsiyasini qayta tekshiradi, umumiy va farqli jihatlarni anglaydi, kelishuvga erishish madaniyatini o‘rganadi. Farmoyish bilan belgilangan tashkiliy va siyosiy sharoit ana shunday amaliy maktab uchun keng imkoniyat yaratadi.

Bu maktabning natijasi lavozim bilan emas, kompetensiya bilan o‘lchanishi kerak: huquqiy matnni tushunish, budjet ta’sirini baholash, ochiq ma’lumotdan foydalanish, manfaatlar to‘qnashuvini tanish, jamoatchilik bilan halol muloqot qilish va qaror uchun javob berish. Ana shu fazilatlar yangi O‘zbekistonning yangi siyosiy avlodini shakllantiradi.

Raqamli savodxonlik oddiy ko‘nikma emas

Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan bir davrda inson huquqlarini ta’minlash masalasi an’anaviy yondashuvlar bilan cheklanib qolmayapti. Sun’iy intellekt, katta hajmdagi ma’lumotlar, raqamli platformalar va ijtimoiy tarmoqlarning barcha jabhaga kirib kelishi inson huquqlarining yangi ko‘rinishlarini shakllantirmoqda. Ayniqsa, yoshlar raqamli makonning eng faol foydalanuvchilari ekanini inobatga olsak, ularning shaxsiy ma’lumoti daxlsizligini ta’minlash, axborot xavfsizligini mustahkamlash hamda raqamli imkoniyatlardan teng foydalanish bugunning dolzarb vazifalaridan.

Fikrimcha, bugun raqamli huquqlarni ta’minlash faqat axborot texnologiyalarini rivojlantirish bilan emas, balki zamonaviy qonunchilikni shakllantirish bilan ham bevosita bog‘liq. Chunki texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda huquqiy mexanizmlar ham ularga mos ravishda takomillashib borishi zarur. Aks holda, yoshlar internet makonida turli noqonuniy harakatlar, kiberfiribgarlik, shaxsiy ma’lumotlarning tarqalishi yoki manipulyativ axborot oqimi ta’siriga duch kelishi mumkin. Shu ma’noda, yosh parlamentariylarning ushbu masalalar bo‘yicha xalqaro tajribani o‘rganishi va qonunchilik tashabbuslarini ilgari surishi muhim ehtiyojdir.

Bugun O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, davlat xizmatlarini elektron shaklga o‘tkazish, sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish hamda axborot texnologiyalari sohasini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonda yoshlarning faolligi tobora ortib borayotir. Biroq raqamli taraqqiyot bilan birga raqamli madaniyat, axborotdan mas’uliyat bilan foydalanish va shaxsiy daxlsizlikni ta’minlash madaniyatini ham rivojlantirish zarur. Zero, zamonaviy jamiyatda raqamli savodxonlik oddiy ko‘nikma emas, balki insonning o‘z huquqlarini himoya qila olishining muhim omiliga aylanmoqda.

Konferensiya mazkur masalalar bo‘yicha umumiy tamoyillarni belgilashga xizmat qilishi mumkin: innovatsiyani cheklamaydigan, ayni paytda inson qadrini himoya qiladigan huquqiy muhit; raqamli tafovutni kamaytiradigan ta’lim; sun’iy intellektdan foydalanishda javobgarlik va axloqiy me’yorlar. Bu yo‘nalishda yosh parlamentariylar faqat foydalanuvchi emas, qoidalarni shakllantiruvchi subyekt bo‘lishi kerak.

Yoshlarning parlamentdagi ishtiroki qanchalik mazmunli, mas’uliyatli va dalilga asoslangan bo‘lsa, islohotlar ham shunchalik xalqchil va hayotiy bo‘ladi. Chunki yoshlar kelajak haqida gapirayotgan emas, balki o‘sha kelajakni bugun qurayotgan avloddir.

Ishonch hayotiy haqiqatlardan kuch oladi, adolat orqali esa bardavomlik kasb etadi. Bugun mustaqilligimiz tom ma’noda mana shunday mustahkam ishonch bilan sug‘orilmoqda.





Shukuh



MUSTAQILLIK – KURASH, ISHONCH VA MILLIY YUKSALISH



Otabek HASANOV,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari

Boshlanishi 1-betda

Mustaqillik, avvalo, o‘z yo‘lingni o‘zing tanlashing, ona tilingda so‘zlashing, qalban erkni his qilib, adolatni ko‘rishing va qadringni sezishing, ya’ni inson bo‘lib yashash deganidir. Nima uchun Vatan deganda bir siqim tuproq qo‘llarimizda oltindan-da qimmatroq ahamiyat kasb etadi? Chunki insonda tug‘ilgan zamini va uni ulg‘aytirgan havosi mujassam, ajdodlari qoni shu tuproqqa to‘kilib, u bilan qorishgan. Shu bois, Vatan ba’zan xaritalarga sig‘masa-da, bir hovuch tuproqda yastanib yota oladi, ko‘zimizga yosh keltirishga qodir bo‘ladi. Bu tuproqda bobolar ruhi, avlodlarning orzulari ham yashaydi. Mustaqillik mana shu bir siqim tuproqni kaftimizda mahkam ushlab turishimizdir.

Buyuk maqsad

Tarix kurashlarga boy, ziddiyatlarga to‘la. Lekin erk uchun jon berilgan jang maydoni, to‘kilgan qon va yozilgan har bir jasoratli so‘z buyuk kurash hamda avlodlar yodida saqlanishi lozim bo‘lgan tarixdir. Mustaqilligimizning 35 yilligiga bag‘ishlangan katta bayram tantanasida aynan shu kurashlar yodga olindi, tarix sahna orqali xotiralarga, yuraklarga kirib bordi. Yoshlar buyuk tariximiz va dovyurak ajdodlarimiz borligini o‘z ko‘zi bilan ko‘rdi, buni bilganlarning esa ko‘zlari namlandi. Sahnada Qadimgi Xorazm, Baqtriya, Turk xoqonligi, Somoniylardan tortib, to buyuk Amir Temur, shayboniylar, xonliklar va Turkiston muxtoriyatining bayroqlari ham tik ko‘tarildi. Jadidlarimiz yod etildi, “qarg‘alar uchgan osmonlar” ostidagi qatag‘onliklar ko‘rsatildi, zaminimizni oh-faryodga to‘ldirgan mudhish davrlar ko‘z o‘ngimizda gavdalandi. Tarixiy tug‘lar maydonda qoldi, bayrog‘imiz esa go‘yo ulardan kuch olgandek, yuksaklarga qadalib, ko‘kka qarab bo‘y cho‘zdi.

Davlatimiz rahbarining Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek ulkan maqsadni xalqimiz bilan, albatta, amalga oshiramiz, biz bunga qodirmiz degan so‘zlaridagi ishonch zamirida mana shu buyuk kuch mujassam ekani yana bir bor eslandi. Mustaqillik bir kunda qo‘lga kiritiladi, ammo u har kuni himoya qilinib, saqlab qolinadi. Har bir avlod uni qayta kashf etadi hamda jasorat, yangi yo‘l va buyuk maqsadlar bilan to‘ldirib boradi. Davlatimiz rahbari o‘z nutqida bunday dedi: “Biz 1991-yilda xalqimizning xohish-irodasi va qat’iyati bilan o‘z davlat mustaqilligimizni qo‘lga kiritdik. Aslida, buyuk istiqlolimiz ildizlari uch ming yildan ziyod bo‘lgan davlatchilik an’analarimiz va qadimiy sivilizatsiyamiz tarixiga borib taqaladi.

Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlarida Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Mir Alisher Navoiy kabi buyuk allomalarimiz bashariyat tafakkuri xazinasini beqiyos darajada boyitgan.

Sohibqiron Amir Temur bobomiz barpo etgan davlat esa adolat va bunyodkorlik timsoli sifatida tarix zarvaraqlaridan munosib o‘rin olgan.

Vatan ozodligi va milliy istiqlol yo‘lida jonini fido qilgan Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat, Qodiriy, Cho‘lpon kabi jadid bobolarimizning hurriyat haqidagi orzu-niyatlari bugun yangi O‘zbekistonda to‘liq ro‘yobga chiqmoqda”.

Xalqimiz bilan birgalikda bunyod etilishi bosh maqsad qilib olingan Uchinchi Renessans poydevorini yaratish g‘oyasi ham aslida yoshlarni ilm-ma’rifat muhiti va ma’naviyat havosidan bahramand etgan holda tarbiyalashga qaratilgandir. Chunki aynan ular ushbu ulkan maqsadni amalga oshiruvchi asosiy kuch. Bu shunchaki puch orzu emasligi aniq. Sababi, biz tarixan renessanslar yaratgan buyuk xalqmiz va bu qudrat har birimizning qonimizda oqib turibdi. Bugungi kunda yoshlarimizga mana shu katta maqsadning muhim bir qismi ekanini tez-tez eslatib turishimiz lozim. Bu tushuncha oilalardan mahallalarga, ta’lim maskanlaridan to ish joylarigacha singib borishi kerak.

Bugun yoshlar o‘zini ulkan maqsadning bir bo‘lagi sifatida his qilib, hayotiy rejalarini ilm-fan, kashfiyotlar, Vatan taraqqiyoti va jamiyatga xizmat qilish kabi yuksak vazifalar bilan uzviy bog‘lamoqda. Bayram tantanalarida qatnashgan olim, ixtirochi, ijodkor va sportchi yoshlarimiz ajdodlar izidan borib, shu buyuk tarixning yangi yo‘llarini ochib berayotganini yana bir bor namoyish etdi.

O‘tgan o‘n yil ichida aholimiz 8 millionga ko‘paygan bir sharoitda maktabgacha ta’lim qamrovining 78 foizga yetkazilgani shunchaki quruq raqamlar emas, aniq haqiqatdir. Maktablarda 1,5 million qo‘shimcha o‘quvchi o‘rni yaratildi. Prezident, ijod va ixtisoslashgan maktablar tashkil etilishi esa farzandlarimizga yetakchi xorijiy ta’lim maskanlaridan aslo qolishmaydigan darajada chuqur bilim egallashi uchun keng imkoniyatlar eshigini ochdi.

Ustoz yozuvchilarimizdan Shukur Xolmirzayev mustaqillikdan keyin yozgan maqolasida qiziq savolni o‘rtaga tashlagan edi: “Mana, yurt mustaqil bo‘ldi. Bir asr qon to‘kib, ne-ne ulug‘larimizni qurbon berib orzu qilganimiz — mustaqillikka erishdik. Xo‘sh, endi nimani yozamiz? Yurakdagi armonimiz ushaldi! Endi qanday ijod qilamiz?”. Adibimiz bu savolga o‘zi juda o‘rinli javob ham bergandi: “Endi yuraklarni chinakam mustaqillikka olib chiqishimiz kerak! Bu juda og‘ir vazifa. Buning uchun, eng avvalo, milliy g‘ururimiz yuksalishi kerak!”.

Yozuvchimizning gapi — ayni haqiqat! G‘urur chindan ham yuksalishi kerak! Bugun mana shu g‘ururimiz yuksalmoqda. Bunga asosiy sabab esa ertangi kunimizga ishonch tobora ortib borayotganidir.



Quvonchimizni sonlarda hisoblab bo‘lmaydi

Mustaqillikka kurash orqali yetib boriladi, qat’iy ishonch bilan esa unga to‘laqonli erishiladi. Chunki kimdir “Sen endi erkinsan!” degani bilan ichingda bunga ishonch bo‘lmasa, mustaqillik faqatgina qog‘ozda qolib ketadi va real hayotga kirib bormaydi.

Bundan yetti asr muqaddam Samarqand zaminida buyuk Amir Temur “Kuch — adolatda” degan hikmatni hayot shioriga aylantirdi va aynan shu tamoyil kuchli davlatchilik asosi bo‘lib xizmat qildi. Demak, agar ortida chinakam haqiqat va ishonch tursa, hatto birgina jumla ham buyuk davlat qura oladi.



Biz Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi jamoasi sifatida mustaqilligimizning 35 yilligi arafasida yurtimizning turli hududlarida bo‘lib, “Mustaqillik to‘yi” tadbirlarini o‘tkazdik. Poytaxtimizda esa yoshlar uchun “Vatan qolsin” she’riy-teatrlashtirilgan sahna asarlarini namoyish etdik. Ushbu jarayonlarda xalqimiz bilan ko‘p bor yuzma-yuz suhbatlashib, dildan gaplashish imkoniga ega bo‘ldik. Qaysidir manzillarda yillar davomida o‘z vatanida begonadek yashab kelib, aynan yangi davr tufayli yurtning chinakam bir bo‘lagiga, to‘laqonli fuqarosiga aylangan insonlarning quvonch ko‘z yoshlariga guvoh bo‘ldik. Yana qay bir hududda yaxshi qo‘shnichilik siyosati sababli yon-atrofdagi mamlakatlarda yashaydigan jigarlari bilan qayta diydor ko‘rishayotgan yurtdoshlarimizning beqiyos xursandligini ko‘rdik.

Bu uchrashuvlarda eng ko‘p eshitganimiz ota-onalarning samimiy so‘zlari bo‘ldi va ularning barchasi bevosita farzandlar taqdiri bilan bog‘liq edi. Kimdir bog‘cha qamrovi oshganini mamnuniyat bilan e’tirof etsa, yana kimdir farzandining talaba bo‘lish imkoniyati kengayganidan quvonchini yashirmadi.

“O‘zbek” desa paxta, “paxta” desa o‘zbek tushuniladigan mashaqqatli qora kunlarni ham boshdan kechirdik. Afsuski, bu asoratdan tezda xalos bo‘la olganimiz yo‘q. Eng yomoni shunda ediki, milliy ta’limimiz paxta dalalarida qurbon qilindi.

Ziyolilarimizning o‘tmish xatolarini to‘g‘rilashdek dilida armoni, tilida afsus-nadomatlari ko‘p edi. Prezidentimizning qat’iy jasorati bilan tarixiy adolat qayta tiklandi va juda ko‘plab qatag‘on qurbonlarining nomlari bugungi kunda oqlanmoqda.

“O‘zbek”, “o‘zbekistonlik”, “o‘zbeklar” degan sharafli nom butun dunyo bo‘ylab baland ovozda va katta hayrat bilan yangray boshladi. Go‘yoki tarix qa’ridan yana o‘sha buyuk jasorat, mardlik va milliy g‘urur qaytgandek bo‘ldi!

Xalqimizning ertaga emas, aynan bugun farovon yashashiga zamin yaratayotgan bu kabi o‘zgarishlar juda ko‘p. Eng muhimi shuki, xalqimizda bu o‘zgarishlar aslo to‘xtamasligiga va ortga qaytmasligiga ishonch baland, ko‘ngillar esa to‘q.

Bayram tantanasida Prezidentimiz nutqida yangragan ko‘rsatkichlar aslida shunchaki quruq raqamlar emas, insonlar taqdiri, inson qadri va millatning ertasi deganidir. Jumladan, “Iqtisodiy erkinlik indeksi”dagi o‘rnimiz 80 pog‘onaga yaxshilanib, “iqtisodiyoti mo‘tadil erkin” davlatlar qatoridan joy olganimiz alohida ta’kidlandi. Ilgari iqtisodiyotimizga yiliga atigi 2-3 milliard dollar xorijiy investitsiya olib kelingan bo‘lsa, hozirgi paytda 40-50 milliard dollar jalb qilinmoqda. To‘g‘ri, biz sonlardagi juda yirik farqlarni ko‘rayotgandirmiz, lekin bu raqamlar ortida turgan insonlar ko‘zidagi quvonchni sonlarda hisoblab bo‘lmaydi.

Yana bir dadil qadam tashlandi, biz ulkan marraga juda yaqin turibmiz. Bundan 3 yil avval mamlakatimizda 2030-yilga borib yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga yetkazish reja qilingan bo‘lsa, endilikda bu ko‘rsatkichlar, dunyodagi murakkab va notinch vaziyatga qaramasdan, shu yilning o‘zidayoq hatto ortig‘i bilan amalga oshishi kutilmoqda. Shu tariqa biz daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga to‘laqonli kirib boramiz.

650 mingdan ziyod oilaning yangi makoniga, o‘z kichik vataniga aylangan uy-joylar haqida eshitib dildan quvonasan. O‘zingning shu kabi tashvishlar ichida o‘tib ketgan kunlaringni eslaysan-u, bugungi yaxshilangan hayot zavqidan beixtiyor entikasan.

Ortga nazar solish barobarida “yo‘g‘on cho‘zilib, ingichka uziladigan”, lekin buni hech kim ochiq tan olmay o‘tib ketadigan zamonlarni eslaysan. Go‘yoki hamma to‘kin-sochin yashayotgandek, jamiyat o‘zining kam-ko‘sti borligini yoki bag‘ridagi noto‘kis holatlarni ko‘rishni istamayotgandek tuyulgan yolg‘onchi davrlar yodingga tushadi. Emishki, kambag‘al yo‘q, hamma to‘q, hammasi yaxshi! Bu gaplarga ishonging keladi-yu, yon-atrofingga qarab mum tishlashga majbur bo‘lasan. Bu muammolarni baralla aytish va ochiq tan olish qachonlardir mumkin bo‘lishiga hatto ishonmasding ham. Lekin shunday bo‘ldi! Kambag‘allik masalasi ochiq tan olinib, uni keskin qisqartirish bo‘yicha o‘ziga xos “Yangi O‘zbekiston tajribasi” yaratildi. Ehtiyojmand oilalar daromadini oshirish, kasbga yo‘naltirish, salomatligini tiklash, farzandlari ta’lim olishi va yashash sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha mutlaqo yangi — mahallabay ishlash tizimi yo‘lga qo‘yildi. Natijada kambag‘allik darajasi 2017-yildagi 35 foizdan bugungi kunga kelib 4 foizgacha tushdi. Bu raqamlar zamirida ham 10 millionga yaqin insonning quvonchi va shukronalik tuyg‘ulari mujassam.

Yaqindagina jahon bo‘ylab katta sport musobaqasi bo‘lib o‘tdi. Yangi O‘zbekiston jamoasi ilk bor mundialda ishtirok etdi. Ushbu jarayonda Prezidentimizdan tortib, to uyimizdagi endigina atak-chechak qilayotgan jajji farzandimizgacha barchaning nigohi ekranlarga qadaldi. Qanchadan qancha yurtdoshlarimiz futbolni bevosita o‘sha stadionlarning o‘zidan turib kuzatib bordi. To‘g‘ri, o‘yin natijasi bizni u qadar qoniqtirmagan bo‘lishi mumkin, lekin butun elning qanday jipslashganini, bir mushtga aylanib ketganini ko‘rdik va bundan benihoya faxrlandik.

Bir zamonlar bosqinchilar tomonidan qonga botirilgan Farg‘onaning dashtu dalalarida bugun mustaqil hayotga kirib kelayotgan oddiy 11-sinf o‘quvchisi dunyoning eng nufuzli universiteti grantini yutib olib, barcha tengqurlari havasini keltirmoqda. O‘zbek o‘quvchisi yoki talabasi shu kabi ulkan yutuqlarni qo‘lga kiritayotgan bir pallada dunyoning qaysidir bir burchagida uning tengdoshi bo‘lgan o‘spirin och qolmaslik va dron yoki bomba hujumlaridan omon qolish haqidagina o‘ylayotgani ham ayni haqiqat. Yurtimizdagi bu kabi yutuqlarni bizga qadr-qimmatini kundan kunga teranroq anglab borayotganimiz — Vatan mustaqilligi va ozod diyorimizda hukm surayotgan tinchlik taqdim etmoqda!

Ishonch hayotiy haqiqatlardan kuch oladi, adolat orqali esa bardavomlik kasb etadi. Bugun mustaqilligimiz tom ma’noda mana shunday mustahkam ishonch bilan sug‘orilmoqda. Yurtning buguniga va yorug‘ kelajagiga ishonchdan ortiq mustaqillikni mustahkamlovchi kuch bo‘lmasa kerak, aslida.



Mustahkam asos

Bugun biz sershovqin, shiddat bilan globallashib borayotgan dunyoda, urbanizatsiya to‘lqinlari ichida chirpirak bo‘layotgan shaharlar va el-elatlar bilan yonma-yon yashamoqdamiz. Yangi O‘zbekiston butun dunyoga chin ma’noda yuz burdi. Qariyb har bir mamlakatda mas’ul idoralarimiz va vakolatxonalarimiz faoliyat yuritmoqda. Hamma yerda o‘zbek xalqini, O‘zbekistonni yaxshi tanishadi. Shu bilan birga, dunyoning katta madaniy, ijtimoiy va siyosiy voqeliklari bizning kundalik hayotimizga ham shiddat bilan kirib kelmoqda. Mana shunday murakkab sharoitda o‘zimizga suyanib topgan milliy yo‘limizning qadri benihoya balanddir. Davlatimiz rahbari bayram nutqida “Bugun biz tarixning yanada mas’uliyatli va hal qiluvchi pallasida turibmiz. Mamlakatimiz taraqqiyotning mutlaqo yangi davriga qadam qo‘ymoqda. Kelgusi o‘n yillik biz uchun milliy yuksalish davri bo‘ladi”, deb ta’kidladi va shu maqsad yo‘lidagi 7 ta muhim milliy dastur haqida to‘xtalib o‘tdi.

Har qanday ishni bajarishdan avval, albatta, u yaxshilab hisob-kitob qilinadi. Jumladan, millat o‘zidan faxrlanishi uchun, o‘zini boshqalardan kam ko‘rmay, aksincha, milliy g‘urur bilan ko‘krak kerib yurishi uchun nafaqat ichki ahvolidan, balki keng dunyodagi global vaziyatdan ham yaxshi boxabar bo‘lishi lozim.

Bejiz davlatimiz rahbarining “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” kitobi “Dunyoda hech qachon bir xil tong otgan emas”, degan jumlalar bilan boshlanmaydi.

Bu so‘zlarda juda teran hikmat va ma’no mujassam. Qaysidir yurtlarda ota-onalar farzandlarini tong otib omon-eson ko‘rishni orzu qilib uyg‘onayotgan bir paytda bizning farzandlarimiz yozgi oromgohlarga dam olish uchun kuzatilmoqda. Surxondaryo yoki Farg‘ona dalalarida bobodehqon shonalayotgan g‘o‘zasi bo‘y-bastiga qarab, mamnuniyat bilan peshona terini artayotgan sokin shom pallasida Yer sharining boshqa bir burchagida qandaydir keksa odam non izlab chiqib ketgan bolasining uyga sog‘-omon qaytishiga ishonolmay, og‘ir iztirob chekmoqda.

Bugungi kunda odamzodning tiyiqsiz xohish-istaklari har qachongidan kattalashib ketdi. O‘z armiyasini, qurol-yarog‘ini, hatto madaniyatini boshqa xalqlar hayotiga kuch ishlatish yo‘li bilan olib kirish holatlari keskin kuchaydi. Bunday qaltis vaziyatda nihoyatda hushyor turib, yon-atrofdagi voqealardan doimo ogoh bo‘lish, xalqning xavfsizligini kafolatlab, shunchaki tinch-totuv yashashning o‘zi ham beqiyos katta yutuqqa aylanib qoldi. Quyidagi dahshatli raqamlarga e’tibor qiling.

BMT havola etgan rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yilda butun dunyo bo‘ylab armiya xarajatlari uchun 2,4 trillion dollar ajratilgan bo‘lsa, global rivojlanish uchun 224 milliard dollar, tinchlikni saqlash uchun esa eng kam mablag‘ — bor-yo‘g‘i 669 million dollar sarflangan.

Shvetsiyaning Uppsala universiteti huzuridagi Tinchlik tadqiqotlari dasturi ekspertlari tahlillariga ko‘ra, 2024-yilning o‘zida 61 ta davlatlararo nizo qayd etilgan. Bu 1946-yildan, ya’ni statistika yuritila boshlangan vaqtdan buyon eng yuqori va xavotirli ko‘rsatkichdir.

Ushbu nizolarning 11 tasi to‘laqonli urush darajasigacha yetib borgan. Holbuki, 2016-yildan buyon bunday yuqori va xavfli ko‘rsatkich qayd etilmagan edi.

Shu o‘rinda yana bir qiziq paradoksni aytib o‘tish lozim: dunyo keyingi 30-35 yil ichida juda katta texnologik taraqqiyotni boshdan kechirdi. Internet tarmog‘i butun kurrai zaminni qamrab oldi. Simsiz aloqa tarmoqlari turli qit’alarni bir-biriga chambarchas bog‘ladi. Sun’iy intellekt mo‘jizasi barcha xalqlarning maishiy hayotigacha kirib bordi. Natijada odamlarning og‘iri ancha yengillashdi. Ammo aholining demografik o‘sishi sezilarli darajada pasayib ketdi. Ko‘plab rivojlangan davlatlarda tug‘ilish ko‘rsatkichlari keskin tushmoqda. Oilaning muqaddas asosi bo‘lgan nikoh masalasiga panja orasidan, go‘yoki eskilik sarqitidek qarash oddiy holga aylanib qolmoqda. Millatlar shiddat bilan qarib bormoqda. Butun-butun shaharlar huvillab, bo‘shab qolmoqda.

Ulug‘ jadid bobomiz Abdurauf Fitratning “Bu dunyo kurash maydonidir. Bu kurashning asosiy quroli esa sog‘lom jismu tan, o‘tkir aql va yaxshi axloqdir” degan hikmatli so‘zlari bugungi kunda har qachongidan dolzarb bo‘lib bormoqda.

Zero, chinakam vatanparvarlik faqat so‘zda emas, balki amaliy harakatlarda, tinmay izlanishda, doimo yangiliklarga intilishda, o‘z ilmu amali bilan el-yurtga naf yetkazish va fidoyilik ko‘rsatishda namoyon bo‘ladi.

Hazrat Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida bunday go‘zal bayt bor:

Iyolu Vatan uzra to joni bor,
Kishi harb etar toki imkoni bor.

Buning ma’nosi shuki, haqiqiy inson to tirik ekan, butun imkoniyatini ishga solib, o‘z Vatani va oilasini (iyolini) himoya qilish uchun oxirigacha kurashadi.

Ma’naviyat mustaqillikning eng ulug‘ va mustahkam asosidir! Qachonki, biz to‘laqonli ma’naviy mustaqillikka erisha olsakkina, oliy maqsadimizga yetgan bo‘lamiz.

Biz mustaqillikning ilk yillarida “g‘alla mustaqilligi”, “paxta mustaqilligi” degan iboralarni juda ko‘p bor ishlatdik. Biroq aslida mustaqillikning eng muhim va asl asoslaridan biri ma’naviy mustaqillik ekanini so‘nggi 10-yil ichidagina teran tushunib yetmoqdamiz. Bugungi kungacha bosib o‘tgan yo‘limizdan chiqargan to‘g‘ri xulosalarimiz, erishgan yutuqlarimiz va yo‘l qo‘ygan kamchiliklarimiz aynan shu haqiqatni isbotlab turibdi.

Demak, ortimizda qolayotgan 35 yillik shonli yo‘l bizga asrlar davomida o‘git bo‘lgulik buyuk saboqni berib bo‘ldi. Endigi vazifamiz faqatgina bu saboqni to‘g‘ri anglay olish va uni real hayotimizga olib kirishdan iborat, xolos!

Zero, Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Biz bugun kechagidan kuchlimiz. Nasib etsa, ertaga bundan-da kuchli bo‘lamiz. O‘ttiz besh yillik mustaqil taraqqiyot yo‘limiz bizga bir haqiqatni o‘rgatdi: xalq va davlat yagona maqsad yo‘lida birlashib, astoydil harakat qilsa, zabt etib bo‘lmaydigan marraning o‘zi yo‘q. Bunday buyuk qudratga ega xalq va davlatni yenga oladigan kuchning o‘zi yo‘q. Biz yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va buyuk kelajagimizni birgalikda barpo etamiz!”.



BIZNES BILAN OCHIQ MULOQOT

IQTISODIY MUHITNING SHAKLLANISH YO‘LI

Boshlanishi 1-betda

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish faqat tegishli qonun hujjatlarini qabul qilish bilangina hal bo‘lmaydi. Bozor bu — millionlab mustaqil iqtisodiy qarorlar erkin qabul qilinadigan, xususiy mulkdor o‘z sarmoyasi taqdiri uchun shaxsiy mas’uliyat oladigan, tadbirkor tavakkal qiladigan, investor ishonch bilan mablag‘ yo‘naltiradigan va iste’molchi erkin tanlovga ega bo‘ladigan tizimdir. Demak, chinakam bozor munosabatlarini barpo etish uchun faqat davlat mulkini qisqartirish emas, balki iqtisodiy tafakkurni, huquqiy institutlarni, moliyaviy tizimni va davlatning iqtisodiyotdagi rolini tubdan o‘zgartirish zarur edi.

Poydevor qo‘yish davri

Mustaqillikning dastlabki chorak asrida mamlakatimizda muhim institutsional qadamlar tashlandi. Davlat mulkini bosqichma-bosqich xususiylashtirish, xususiy mulkchilikni qonunchilikda mustahkamlash, kichik biznes va fermerlik harakatini shakllantirish, bank-moliya tizimini barpo etish shular jumlasidandir. Konstitutsiyada barcha mulk shakllarining tengligi hamda iqtisodiy faoliyatning huquqiy kafolatlari belgilab qo‘yildi.

Biroq 1991-2016-yillar tarixini xolis tahlil qilganda, qog‘ozda tadbirkorlik erkinligini e’lon qilish bilan amaliyotda chinakam erkin biznes muhitini shakllantirish o‘rtasida muayyan uzilishlar saqlanib qolganini ko‘rish mumkin.

O‘tish davrida ijtimoiy beqarorlik va chuqur iqtisodiy inqirozga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida davlat iqtisodiyotda katta nazorat rolini saqlab qoldi. Ushbu yondashuv o‘z davrida obyektiv asoslarga ega bo‘lsa-da, davlatning iqtisodiyotga haddan tashqari yuqori aralashuvi xususiy sektorning mustaqil harakat qilish imkoniyatlarini toraytirib qo‘ydi. Davlat bir vaqtning o‘zida ham tartibga soluvchi, ham bozor ishtirokchisi, ham qattiqqo‘l nazoratchi sifatida maydonda qolaverdi. Oqibatda xususiy biznes erkin bozor tamoyillaridan ko‘ra ko‘proq murakkab ma’muriy tartib-taomillarga moslashishga majbur bo‘ldi.

Ayniqsa, uzoq muddatli va arzon kredit resurslari yetishmasligi xususiy sektorning sifatli kapitallashuviga yo‘l bermadi. Rasmiy statistikaga nazar tashlasak, 2010-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YIMdagi ulushi 60,8 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2015-yilda 64,6 foizga, 2016-yilda esa 66,8 foizga yetdi. Biroq ushbu yuqori salmoq asosan savdo, maishiy xizmat ko‘rsatish va kam kapital talab qiladigan sohalarda jamlangan bo‘lib, xususiy sektorning yuqori texnologik sanoat, innovatsiyalar va eksportdagi ulushi cheklangan darajada qolaverdi.

Tranzaksiya xarajatlari yuqoriligi, valyuta muomalasidagi cheklovlar, monopol subyektlarning bozordagi ustun mavqei va hududlararo infratuzilma tafovutlari iqtisodiy resurslarning eng samarali yo‘nalishlarga oqib kirishini susaytirdi. Investor va tadbirkor uchun eng katta to‘siq faqat soliq stavkalari emas, balki o‘yin qoidalarining prognoz qilib bo‘lmasligi va ma’muriy xavotirlar edi.



Abdumannop BO‘RIYEV, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil — biznes ombudsman

Imkoniyatlar eshigini ochgan islohotlar

2016-yil mamlakatimizning zamonaviy iqtisodiy tarixida chinakam burilish nuqtasi bo‘ldi. Prezidentimiz davlat rahbari sifatida ish boshlagan ilk kunlaridanoq tadbirkorlikni kengaytirish, ishsizlikni kamaytirish, byurokratik to‘siqlarni sindirish va xalqni rozi qilishga qaratilgan tub islohotlarni kun tartibining eng yuqori pog‘onasiga olib chiqdi.



Prezidentimizning 2016-yil 5-oktabrdagi “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi tarixiy farmoni bilan 2017-yil 1-yanvardan tadbirkorlik subyektlarini rejadan tashqari tekshirishlar (korxonani tugatish yoki jinoyat ishi doirasidagi holatlardan tashqari) hamda muqobil tekshirishning barcha turlari butunlay bekor qilindi.

Tadbirkorlarning huquqiy himoyasini institutsional darajaga ko‘tarish yo‘lida yana bir tarixiy qadam tashlandi: Prezidentimizning 2017-yil 5-maydagi farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil (biznes ombudsman) instituti ta’sis etildi. 2017-yil 29-avgustda qabul qilingan alohida qonun bilan biznes ombudsmanning huquqiy maqomi va davlat organlari faoliyati ustidan nazorat vakolatlari yanada mustahkamlandi.

Yillar davomida iqtisodiyot rivojiga g‘ov bo‘lib kelgan ko‘p sonli valyuta kurslari muammosi — Markaziy bankning rasmiy sun’iy kursi, birja kursi va ulardan 2 barobardan ortiq farq qiluvchi “qora bozor” tizimiga 2017-yilning 5-sentabrida chek qo‘yildi. Bozor talab va taklifiga asoslangan yagona valyuta kursi o‘rnatildi, yuridik va jismoniy shaxslarga tijorat banklari orqali valyutani erkin sotib olish va sotish huquqi berildi, eksportchilarning valyuta tushumini majburiy sotish tartibi to‘liq bekor qilindi. Bu xorijiy sarmoya va zamonaviy texnologiyalar oqimini bir necha karra oshirdi.

2020-yilgi global pandemiya sinovlari davrida ham tadbirkorlarga soliq ta’tillari berilib, mol-mulk va yer soliqlari pasaytirildi, kredit to‘lovlari muddati uzaytirildi hamda kichik biznes uchun ijtimoiy soliq stavkasi 12 foizdan 1 foizga tushirildi. Shu bilan birga, nazorat organlarining o‘zibo‘larchiligiga chek qo‘yish maqsadida barcha tekshirishlarni elektron ro‘yxatga oluvchi “Yagona davlat nazorati” axborot tizimi ishga tushirildi.

Muammo, to‘siq va yechimlar

2021-yildan davlatimiz rahbarining tadbirkorlar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri ochiq muloqot o‘tkazish an’anasi yo‘lga qo‘yildi. Ushbu muloqotlar rasmiyatchilikdan xoli bo‘lib, muammolarni joyida eshitish va tizimli qarorlar qabul qilishning bosh maydoniga aylandi. 2021-2026-yillar davomida ko‘tarilgan takliflar asosida sohaga oid jami 84 ta qonun hamda 860 dan ziyod farmon va qaror



qabul qilindi. Biznes uchun kredit portfeli qariyb 3 barobar kengayib, 450 trillion so‘mga yetkazildi, tadbirkorlarga 650 trillion so‘mlik soliq va bojxona imtiyozlari berildi.

2021-yil (I ochiq muloqot): 20-avgust mamlakatimizda Tadbirkorlar kuni deb e’lon qilindi. Kelib tushgan 15 mingdan ziyod murojaatning qariyb yarmi joyida hal etildi. Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasidan 600 million dollar ajratildi, milliy valyutada 417 million dollarlik yevrobondlar chiqarildi, 6 mingga yaqin tadbirkorning 1 milliard dollarlik valyuta kreditlari so‘mga o‘tkazildi. Eksportchilarga hajmiga qarab 1, 3 va 5 million dollargacha to‘g‘ridan to‘g‘ri moliyaviy resurslar ajratildi. Shuningdek, eksportchilarga QQSning 80 foizini 60 kun o‘rniga 7 kunda qaytarish yo‘lga qo‘yildi. Natijada eksportchi korxonalar soni 7,5 mingtaga yetib, eksport 30 foiz o‘sdi, “E-yer” tizimiga 22 ming gektardan ziyod 54 mingta bo‘sh yer maydoni kiritildi.

2022-yil (II ochiq muloqot): biznes yillik aylanmasi bo‘yicha mikro (83 ming dollargacha), kichik (834 ming dollargacha) va o‘rta biznes (8,3 million dollargacha) toifalariga ajratildi. Mikrobiznes uchun 4 foizdan 25 foizgacha bo‘lgan stavkalar o‘rniga yagona 4 foizli aylanma solig‘i kiritildi. Foydalanilmayotgan bino va yerlar bo‘yicha oshirilgan stavkalar sabab vujudga kelgan 167 million dollarlik qarzdorlik hisobdan chiqarildi. 2023-yil 1-yanvardan QQS stavkasi 15 foizdan 12 foizga tushirildi. Yer va mulk ajratish qarorini faqat sud tartibida bekor qilish kafolatlandi, savdo qoidalarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik bekor qilindi.

2023-yil (III ochiq muloqot): hududlarda 14 ta Kichik biznes markazi tashkil etildi, tayyor maydonlarni taqdim etuvchi “sanoat ipotekasi” tizimi yo‘lga qo‘yildi. “Yangi O‘zbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti” dasturi doirasida yetakchi eksportchilar soni 100 tadan 500 taga yetkazildi. Biznes tashabbuslariga 667 million dollar, sohalarga 1,5 milliard dollar yo‘naltirildi. Tadbirkorlarning aylanma mablag‘lari 82,2 milliard dollarga yetdi. Zarar bilan ishlagan 16 mingta korxona yarim yilda 542 million dollar foyda ko‘rdi. “Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi” joriy etilib, “A” va “B” toifadagi korxonalar 91 mingtaga ko‘paydi, faoliyat ko‘rsatayotganiga uch yildan oshgan korxonalar ulushi 76 foizga yetdi (300 mingtaga yaqinlashdi).

2024-yil (IV ochiq muloqot, Nukus shahri): mikrokreditning eng yuqori miqdori 3 baravar — 25 ming dollargacha oshirilib, 8,3 ming dollargacha qismidan garov talabi olib tashlandi. Islom moliyasi bo‘yicha qonun loyihasi doirasida 5 milliard dollarlik manba yaratilishi belgilandi. Auksion orqali sotib olingan yerlardan QQS bekor qilinib, bo‘lib to‘lash muddati toifasiga qarab 3 yildan 10 yilgacha belgilandi. 16 turdagi litsenziya bekor qilinib, biznes 29,2 million dollar tejadi.

2025-yil (V ochiq muloqot, Yangi Toshkent): yuz minglab yakka tartibdagi tadbirkor va millionlab o‘zini o‘zi band qilgan fuqarolar uchun 2030-yilgacha maxsus qulay rejim joriy qilindi. Prezidentimizning tegishli farmoniga asosan, 2026-yil 1-yanvardan “Biznesni 15 daqiqada ochish” tizimi yo‘lga qo‘yildi (ro‘yxatdan o‘tish bilan bir vaqtda ERI olish, bank hisobi, QQS guvohnomasi, kassa mashinasini ro‘yxatga olish kabi 7 ta xizmat birdaniga ko‘rsatiladi). Yillik aylanmasi 83 ming dollargacha bo‘lgan subyektlar uchun aylanma solig‘i 4 foizdan 1 foizga tushirildi.

2025-yil yakunlariga ko‘ra, respublikamizda bir yilda 82,4 mingta yangi subyekt yaratildi. Kichik biznesning YIMdagi ulushi 52,2 foiz, eksportda 36,6 foiz, sanoatda 28,5 foiz, qurilishda 75,6 foiz, savdoda 83 foiz va xizmatlar sohasida 47,2 foizni tashkil etdi.

Tekshirishlarga 3 yillik moratoriy

2026-yilning 18-avgust kuni qadimiy va navqiron Xiva shahrida bo‘lib o‘tgan VI ochiq muloqot davlat va tadbirkor o‘rtasidagi ishonchni mutlaqo yangi pog‘onaga ko‘targan tarixiy voqea bo‘ldi. Tadbirda zalda 500 ga yaqin tadbirkor bevosita, respublikamizning barcha tumanlaridagi studiyalardan 25 mingga yaqin ishbilarmon ishtirok etdi. Bugungi kunda yurtimizda faoliyat ko‘rsatayotgan 1 million 200 mingdan ziyod biznes hamjamiyati iqtisodiyotimizning asosiy tayanchidir.

Muloqotga tayyorgarlik ko‘rish uchun 15-maydan boshlab 50 dan ortiq vazirlik va idora vakillaridan iborat respublika shtabi 24/7 rejimida uzluksiz ishladi. Kelib tushgan 6 mingga yaqin murojaatning 4,2 mingdan ortig‘i ijobiy hal etildi, 1,8 mingtasi nazoratga olindi.

Kichik biznes uchun eng quvonchli yangilik — inson hayoti va sog‘lig‘iga xavf tug‘dirmaydigan kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirishga yangi 3-yillik qat’iy moratoriy e’lon qilingani bo‘ldi.

Bu qaror chuqur tahlillarga asoslangan: 2018-2020-yillardagi moratoriy davrida 2019-yilda 92,9 mingta yangi kichik korxona ochilib, umumiy soni 508,9 mingtaga yetgan, byudjetga soliq tushumlari 2018-yilda 43,6 foiz, 2019-yilda 70,1 foiz (92,2 trillion so‘m) o‘sgan edi. Biroq moratoriy tugagach, soliq tekshiruvlari soni 2021-yildagi 50,9 mingtadan 2025-yilda 96,4 mingtaga chiqib, mamlakatdagi har 6 tadbirkordan biri tekshiruvga duch kelgan. O‘rganishlar 5 ming korxonaning yarmidan ko‘pida yiliga 2-3 marta, 21 foizida esa 4 martadan soliq tekshiruvlari o‘tkazilganini ko‘rsatdi. Yangi moratoriy nazorat idoralari faoliyatini jazolashdan to‘liq profilaktika va ishonchga asoslangan tartibga solishga yo‘naltirdi.

O‘rta va yirik korxonalar ixtiyoriy profilaktik auditdan o‘tib, kamchiliklarni bartaraf etsa, jarimaga tortilmaydi va soliq tekshiruvi o‘tkazilmaydi. Bunday korxonalarda yil davomida o‘tkaziladigan har qanday takroriy tekshiruv faqat va faqat biznes ombudsmanning rasmiy ruxsati bilan amalga oshiriladi. Tekshiruvlarni biznes-ombudsman bilan kelishish mexanizmi tekshiruvlarni xabardor qilish tizimiga o‘tgunga qadar katta samara bergan (masalan, 2019-yilda soliq organlari kiritgan 1035 ta tekshiruv buyurtmasidan 391 tasi (37,8 foiz), 2020-yilda 2336 tadan 978 tasi (33,7 foiz) asossiz bo‘lgani uchun biznes ombudsman tomonidan qat’iy rad etilgan).

“Sukut — rozilik”

30 dan ortiq litsenziya va ruxsatnoma bekor qilinadi, 35 tasining muddati 2-3 barobar qisqartiriladi. Litsenziya olish bo‘yicha tadbirkor arizasi rad etilgan har bir holat biznes ombudsman tomonidan alohida tekshiriladi va asossiz rad etgan amaldorlarga jazo muqarrarligi ta’minlanadi. Davlat xizmatlarining 50 foizida davlat organi muddatida javob bermasa, qaror tadbirkor foydasiga qabul qilinadigan “sukut — rozilik” tamoyili ishga tushadi.

Davlat va biznes o‘rtasidagi nizolarda sudda aybi isbotlanmaguncha tadbirkor aybsiz hisoblanadi, unga moliyaviy jarima yoki taqiq qo‘llash taqiqlanadi. Salomatlik va mulkka zarar yetkazmagan ilk xatolik uchun “birinchi xato uchun ogohlantirish” berilib, kamchilikni to‘g‘rilashga 10 kun muddat ajratiladi. Barcha jarimalar miqdori o‘rtacha 2 barobar kamaytiriladi, nazorat organlari esa yuqori sud instansiyalarida davlat boji to‘lashga majbur etiladi.

VI ochiq muloqotda e’lon qilingan boshqa muhim strategik tashabbuslar haqida ham to‘xtalsak. Jumladan, yangi boshlayotganlar uchun “Biznes start”, kengayayotganlar uchun “Biznes lift” va yirik sakrash uchun “Biznes yuksalish” dasturlari taqdim etiladi. 10 milliard so‘mgacha bo‘lgan kreditlarda garov ta’minotining 75 foizini davlat va banklar “kontr-kafolat” sifatida o‘z zimmasiga oladi.

“10 ming korxona uchun sun’iy intellekt hamkor” dasturi doirasida korxonalarga sun’iy intellektni joriy etish xarajatlarining 50 foizi davlat tomonidan qoplab beriladi. Raqamli hukumat markazidagi superkompyuter klasteridan bepul foydalanish yo‘lga qo‘yilib, yiliga 1 trillion so‘mdan ortiq daromadli 50 ta korxona xalqaro IPO bozorlariga chiqariladi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda biznes muhitini yaxshilash yo‘lidagi islohotlar bugun sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Eng muhimi, tadbirkor davlat siyosatining shunchaki obyekti emas, balki uni shakllantirishda bevosita ishtirok etadigan hamkorga aylandi. Prezidentimizning tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti esa muammolarni eshitish va hal etishning bir martalik tadbiridan barqaror va ta’sirchan institutga aylanib bormoqda.

Yillar davomida to‘plangan tajriba ko‘rsatdiki, biznes uchun eng katta rag‘bat faqat imtiyoz yoki yengillik emas, balki qonun ustuvorligi, davlat bilan ochiq muloqot va ertangi kunga ishonchdir. Shu ma’noda, bugungi islohotlarning bosh mezoni ham aniq: tadbirkor qanchalik erkin va ishonch bilan faoliyat yuritsa, iqtisodiyot shunchalik barqaror va raqobatbardosh bo‘ladi.

Tayanch nuqta

INSON QADRINI ULUG‘LASH MAHALLADAN BOSHLANADI



Joriy yilning yurtimizda “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb e’lon qilingani ko‘plab xayrli ishlarga sabab bo‘lmoqda. Xususan, Amudaryo tumanining Qum yop mahallasida ham keng ko‘lamli ishlar bajarilmoqda. Hozir mahallada 1860 oila yashaydi.

Qum yop mahallasi xotin-qizlar faoli Roza Qonarbayeva hududdagi barcha xonadonlar holatini chuqur o‘rganmoqda. Shu asnoda nogironligi bo‘lgan shaxslar, kam ta’minlangan oilalar, boquvchisini yo‘qotgan hamda yolg‘iz yashayotgan keksalar holidan muntazam xabar olinyapti.

— Oilalardagi ijtimoiy-ma’naviy muhitni yanada samarali o‘rganish uchun “Nuroniylar” va “Qaynonalar kengashi” kabi jamoatchilik tuzilmalari tashkil etilgan. Bu keng jamoatchilikning mahalla hayotida faol ishtirok etishiga xizmat qilmoqda. Qolaversa, jamiyat taraqqiyotida ko‘p yillik hayotiy tajribaga ega nuroniylarning o‘rni beqiyos. Masalan, mahallamiz faxri Orzigul Yo‘ldoshevaning hayot yo‘li yoshlarga o‘rnak bo‘lmoqda, — deydi Roza Qonarbayeva. — Yosh avlod tarbiyasi va oilalar mustahkamligini ta’minlash maqsadida mahalla raisi va faollar bilan xonadonlardan xabar olyapmiz. Shu tariqa yosh oilalarning yashash tarzi bilan yaqindan tanishib, zarur maslahatlar berilyapti.

Bugun mahallada farzand tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan ota-onalar bilan qat’iy ish yuritilyapti. Hududda erta turmush, jinoyatchilik kabi turli ko‘ngilsiz holatlarning oldi olinmoqda. Bu jarayonda mahalladagi Baxtiyor Bekniyazov va Momojon Kazakbayeva oilasi ham yoshlar uchun namuna bo‘lyapti. Nafaqadagi bu faxriy o‘qituvchilar uyda bekor o‘tirmay, tomorqasida turli ekinlar yetishtirib, mo‘l hosil olmoqda.



Ha, qishloq sharoitida tomorqa aholining eng muhim daromad manbalaridan. Mahallada yashovchi yana bir onaxon Pardagul G‘oyipova ham yoshi ulug‘ligiga qaramay, tomorqasidan unumli foydalanib, barchaga mehnatsevarlik namunasini ko‘rsatib kelmoqda.

— Jamiyatda xotin-qizlarning o‘rnini mustahkamlashda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish g‘oyat katta ahamiyat kasb etadi. Ish bilan ta’minlangan, doimiy daromad manbaiga ega ayol jamiyatning eng faol a’zosiga aylanadi, — deydi Roza Qonarbayeva. — Mahallamizda istiqomat qiluvchi To‘lg‘anoy Bozorboyeva tikuvchilik sexi tashkil qildi. U aholiga sifatli xizmat ko‘rsatib, yoshlarga hunar o‘rgatmoqda. Mahallamizdagi yana bir namunali oila Shodiyor Shermanov va Sayyora Qurbaniyazovaning qizi ham o‘z biznesini muvaffaqiyatli yo‘lga qo‘yib, yoshlarga hunar o‘rgatmoqda.

Albatta, har qanday o‘sish va o‘zgarish zamirida inson salomatligi turadi. Shu bois, mahallada bu boradagi ishlarga ham jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Aholi, ayniqsa, ayollar salomatligi haqida gap ketganida hududda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish ishlarini ham alohida qayd etish joiz. Ayniqsa, homilador ayollar va yosh onalarga e’tiborni kuchaytirish borasidagi targ‘ibot ishlari samara bermoqda. Joriy yilning dastlabki 6 oyida mahallada 65 ta tug‘ilish qayd etilgan. Patronaj hamshiralarning muntazam nazorati natijasida onalar va bolalar o‘limiga umuman yo‘l qo‘yilmagan. Tibbiy xizmat qamrovini kengaytirish maqsadida tug‘ish yoshidagi 880 nafar ayol chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilgan. Qum yop mahallasidagi keng qamrovli ishlar oilalar mustahkamligi, yoshlarning sog‘lom va barkamol bo‘lib kamol topishiga xizmat qilmoqda.

Minajatdin QUTLIMURATOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

YANGI O‘ZBEKISTON
www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news
5
2026-yil 4-sentabr, 183-son



Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!

ISTIQLOLNING KO‘RINMAS QAL’ASI



Begdavlat ALIYEV,
falsafa fanlari doktori,
professor

Bugungi globallashuv davrida dunyo tobora yaxlit bir makonga aylanib bormoqda. Davlatlar va xalqlar o‘rtasida iqtisodiy, siyosiy, madaniy va axborot aloqalari misli ko‘rilmagan darajada kengaymoqda. Shunday sharoitda davlatning o‘z taraqqiyot yo‘lini mustaqil belgilashi, milliy manfaatlarini himoya qilishi va tashqi imkoniyatlardan oqilona foydalanishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugun mustaqillik tushunchasi ham tabiiy ravishda yangi mazmun va o‘lchamlar bilan boyimoqda. Ilgari mustaqillik, avvalo, davlatning siyosiy erkinligi, hududiy yaxlitligi, chegaralar daxlsizligi va o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqi bilan izohlangan bo‘lsa, endi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan sharoitda uning mazmuni ancha kengaydi. Zero, davlatning tashqi jihatdan mustaqil bo‘lishi bilan birga ichki barqarorligi, iqtisodiy salohiyati, axborot xavfsizligi, ma’naviy immuniteti va aholining mustaqil fikrlay olishi ham mustaqillikning muhim ko‘rsatkichlariga aylanmoqda.

Mustaqillik faqat tashqi ta’sirdan xoli bo‘lish emas, balki ichki jihatdan mustahkam bo‘lish, o‘z qadriyatlariga tayana olish va kelajagini o‘zi belgilash qobiliyatidir. Agar inson o‘z fikrini boshqalarning tayyor qarashlarisiz shakllantira olsa, axborot oqimida haqiqatni yolg‘ondan ajrata bilsa, o‘z milliy va umuminsoniy qadriyatlarini anglab, ularga sodiq qolgan holda zamonaviy dunyo bilan hamohang yashasa, bu ham mustaqillikning yangi, zamonaviy ko‘rinishidir.

Avvalo, mustaqillikning ahamiyatini uning inson hayotidagi amaliy ifodasi, ayniqsa, so‘nggi o‘n yillikda jamiyatimizda yuz bergan o‘zgarishlar misolida ko‘rish mumkin. Zero, istiqlolning haqiqiy qiymati faqat siyosiy va tarixiy tushunchalar bilan emas, balki oddiy insonning hayotida paydo bo‘lgan yangi imkoniyatlar, uning orzu va maqsadlarini ro‘yobga chiqarish imkoni bilan ham o‘lchanadi. Bunga ta’lim sohasidagi o‘zgarishlar yaqqol misol bo‘la oladi.

Bir vaqtlar oliy ta’limga kirish masalasi ko‘pchilik oilalar uchun jiddiy muammo, katta raqobat va turli noaniqliklar bilan bog‘liq edi. Bugun esa oliy ta’lim qamrovining kengayishi, yangi oliy ta’lim muassasalari va ta’lim yo‘nalishlari ko‘payishi, grant va boshqa imkoniyatlar oshishi tufayli bir oilada bir necha farzandning turli oliygohlarda tahsil olayotgani tobora odatiy holga aylanmoqda. Bu shunchaki statistik o‘zgarish emas, aksincha, oilaning, jamiyatning va eng muhimi, insonning kelajak haqidagi tasavvuri o‘zgarayotganidan dalolat.

Ayniqsa, qizlarning ta’lim olishi va kasbiy faolligi borasidagi o‘zgarishlar jamiyatdagi tafakkur yangilanishining muhim ko‘rinishlaridan. Ilgari ayrim hududlarda “Qiz bolaga o‘qishning nima keragi bor?” qabilidagi qarashlar uchragan bo‘lsa, bugun minglab qizlarimiz tibbiyot, axborot texnologiyalari, huquq, muhandislik, iqtisodiyot va boshqa zamonaviy sohalarni tanlab, o‘z kasbiy kelajagini mustaqil belgilamoqda. Bu jarayon nafaqat xotin-qizlarning ijtimoiy mavqeini o‘zgartirmoqda, balki butun jamiyatning inson kapitali va intellektual salohiyatini boyitmoqda.

Eng muhimi, ta’limdagi bunday o‘zgarishlar bir avlodning emas, keyingi avlodlarning ham taqdiriga ta’sir qiladi. Oliy ma’lumotli, kasb egasi bo‘lgan qiz nafaqat o‘z hayoti uchun yangi imkoniyatlar yaratish barobarida farzandlarining ta’limi, dunyoqarashi va kelajagiga ham boshqacha ta’sir ko‘rsatadi. Shu ma’noda, mustaqillikning mazmunini faqat davlat miqyosidagi katta voqealardan emas, balki bir oilaning farzandiga ta’lim berish imkoniyati kengaygani, bir qiz o‘z orzusidagi kasbni tanlay olgani, bir yosh o‘z mehnati bilan jamiyatda o‘z o‘rnini topayotgani kabi oddiy, ammo hayotiy misollar orqali ham anglash mumkin.

Mustaqillikning inson hayotidagi amaliy qiymatini iqtisodiy erkinlik va mehnati bilan o‘z kelajagini qurish imkoniyati orqali ham yaqqol ko‘rish mumkin. Ilgari oddiy do‘kon ochish, kichik ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish yoki o‘z biznesini boshlash ko‘pchilik uchun katta tavakkal va turli to‘siqlar bilan bog‘liq edi. Bugun tadbirkorlikni boshlash uchun imkoniyatlar ancha kengaydi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar bu jarayonga yangi mazmun olib kirdi. Endi tadbirkorga har doim ham katta bino yoki yirik ishlab chiqarish maydoni shart emas. Uy sharoitida boshlangan kichik ish onlayn savdo, ijtimoiy tarmoqlar va elektron platformalar orqali keng bozorga chiqishi mumkin.

Masalan, oddiy tikuvchilikdan ish boshlagan tadbirkor qizni tasavvur qilaylik. U ishni dastlab o‘z uyida bir nechta buyurtmani bajarishdan boshlashi, keyin davlat taqdim etayotgan imtiyozli moliyaviy ko‘mak, kasbiy o‘quv va tadbirkorlik dasturlaridan foydalanib, faoliyatini kengaytirishi mumkin. Natijada kechagina uy sharoitida ishlagan bir inson bugun bir necha kishini ish bilan ta’minlaydigan kichik sex egasiga aylanadi.

Bu yerda gap faqat bitta tadbirkorning muvaffaqiyati haqida emas. Asosiy jihat bir insonning imkoniyati kengayishi ortidan bir nechta oilaning daromadi, bir mahallaning iqtisodiy faolligi va jamiyatning umumiy farovonligi o‘zgarganida. Demak, mustaqillikning zamonaviy mazmuni insonning nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy jihatdan ham o‘z imkoniyatini ro‘yobga chiqara olishida namoyon bo‘lmoqda.

Eng muhimi, bu o‘zgarishlar quruq raqamlar yoki rasmiy hisobotlardagina emas, balki insonlarning real hayotida, farzandlar taqdirida, oilalarning turmush darajasida va jamiyatning kundalik qiyofasida o‘z aksini topmoqda. Shu



ma’noda, so‘nggi o‘n yillik mamlakat hayotidagi o‘zgarishlar bilan birga millionlab odamlarning shaxsiy taqdiriga ta’sir ko‘rsatgan amaliy davr sifatida baholanadi.

Biroq hayot faqat yutuqlardan iborat emas. Jamiyat taraqqiyotida imkoniyatlar qanchalik kengaymasin, ular bilan birga yangi mas’uliyat va xavflar ham paydo bo‘ladi. Bugun kundalik hayotimizda kuzatilayotgan ijobiy o‘zgarishlar qatorida jamiyatning ma’naviy barqarorligi, milliy o‘zlik va avlodlar o‘rtasidagi qadriyatlar uzviyligiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan ayrim salbiy holatlar ham namoyon bo‘lmoqda.

El-yurt taqdiriga befarqlik, jamiyat muammolariga “Bu mening ishim emas” degan munosabat, milliy qadriyatlarga loqaydlik, oila va farzand tarbiyasida mas’uliyatning susayishi — bular bir qarashda alohida-alohida holatdek ko‘rinishi mumkin. Ammo ularning barchasi





bir nuqtada tutashadi: insonning jamiyat va o‘z taqdiri oldidagi mas’uliyati susayishi.

Ayniqsa, axborot oqimi nihoyatda tezlashgan, raqamli platformalar inson hayotining ajralmas qismiga aylangan bugungi sharoitda bu masala yanada dolzarb tus olmoqda. Inson bir vaqtning o‘zida milliy qadriyatlar, oilaviy tarbiya va mahalliy ijtimoiy muhit bilan bir qatorda turli madaniyatlar, qarashlar, g‘oyalar va hayot tarzlarining kuchli ta’sirida yashamoqda. Inson nimani qabul qilishi, nimani rad etishi va qaysi qadriyatni o‘z hayotining ma’naviy mezoni sifatida tanlashi tobora muhim masalaga aylanmoqda. Shu bois, bugun jamiyat oldida turgan vazifa o‘zgarishlarning o‘zi bilan cheklanib qolmay, ularning inson ma’naviyatiga qanday ta’sir ko‘rsatayotganini ham anglashdan iborat.

Ijtimoiy tarmoqlar jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylangan bugungi sharoitda mamlakatimizda yuz berayotgan voqea-hodisalarni muhokama qilish madaniyati ham alohida e’tibor talab etmoqda. Zero, ijtimoiy tarmoqlar faqat axborot tarqatiladigan maydon emas, balki jamoatchilik fikri shakllanadigan, odamlar o‘z munosabatini bildiradigan va muayyan masalalarga nisbatan ijtimoiy pozitsiya vujudga keladigan katta maydonga aylandi. Bu esa har bir fikr, har bir izoh va tarqatilgan har bir axborotning jamiyat kayfiyatiga ta’sirini oshirmoqda.

Albatta, tanqidiy fikrning o‘zi jamiyat uchun xavf emas. Aksincha, sog‘lom tanqid taraqqiyotning muhim omillaridan. Muammoni ko‘ra bilish, kamchilikni ochiq aytish, mas’ullardan javob talab qilish va jamoatchilik manfaatini himoya qilish faol fuqarolik pozitsiyasining muhim ko‘rinishidir. Ammo tanqid fakt, tahlil va mas’uliyatdan uzilib, hissiyot, biryoqlama xulosa yoki ataylab keskinlashtirish vositasiga aylansa, uning ijtimoiy qiymati o‘zgaradi.

Bugun ayrim holatlarda voqeaning mohiyatini anglashdan ko‘ra, uning eng salbiy jihatini ajratib ko‘rsatish, muammoning sabablarini tahlil qilishdan ko‘ra aybdor izlash, hatto ijobiy natijadan ham salbiy xulosa chiqarishga intilish kuzatilmoqda. Bunday yondashuv esa voqelikni xolis baholash imkoniyatini cheklab, jamoatchilik kayfiyatida ishonchsizlik va salbiy munosabatlarni kuchaytirishi mumkin.

Ayniqsa, raqamli muhitda axborotning tez tarqalishi bu masalani yanada dolzarblashtiradi. Bir insonning tekshirilmagan fikri yoki hissiyot bilan yozilgan munosabati qisqa vaqtda minglab odamlarga yetib borishi mumkin. Shu sababli bugun axborotni qabul qilish madaniyati bilan bir qatorda uni tarqatish madaniyati ham muhim. Odamlar “Men bu xabarni tarqatsam, oqibati qanday bo‘ladi?” degan oddiy savolni o‘ziga o‘zi berishni o‘rganishi kerak.

Achinarlisi, bunday muhitda mamlakat, uning kelajagi va jamiyat hayoti haqida yengil-yelpi, umumlashtirilgan va bir yoqlama xulosalar ham ko‘paymoqda. Ayrim fikrlar real voqelikni chuqur tahlil qilishdan ko‘ra, axborot xuruji ta’sirida shakllangan tasavvurlarga yaqinlashmoqda.

Bunday yondashuvlarning xavfi shundaki, ular tashqi bosim yoki ochiq ta’sirdan farqli ravishda inson ongi va tafakkuri orqali sekin, ammo chuqur ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ayniqsa, hayotga endi kirib kelayotgan, axborotni saralash tajribasi hali yetarli bo‘lmagan yoshlar turli fikr va qarashlarni osongina haqiqat sifatida qabul qilishi ehtimoldan xoli emas.

Shu bois, yoshlarning axborotni tanqidiy tahlil qilish, manbani tekshirish va har bir fikr ortidagi maqsadni anglash ko‘nikmasini shakllantirish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aks holda, bir yoqlama va salbiy qarashlar yoshlar ongida o‘z jamiyati, millati va kelajagiga nisbatan asossiz ishonchsizlik paydo qilishi mumkin. Bugungi vazifa yoshlarni axborotdan himoya qilish emas, balki ularni axborot ta’siriga tushib qolmaydigan darajada mustaqil fikrlaydigan qilib tarbiyalashdir.

Daxldorlik faqat faol harakat emas, avvalo, hushyorlikdir. Ya’ni inson o‘z jamiyatida kechayotgan jarayonlarga befarq bo‘lmasligi, ularni anglash, tahlil qilish va xolis baholashga intilishi kerak. Chunki anglanmagan voqelik inson ongida osongina boshqa birovning talqiniga aylanadi, anglangan voqelik esa insonning o‘z pozitsiyasini shakllantirish imkonini beradi.

Kuzatishimcha, bugun dunyodagi ko‘plab ziddiyatlar zamirida ishonch inqirozi yotibdi. Insonning insonga, jamiyatning o‘z imkoniyati va kelajagiga ishonchi susaygani sari ichki birdamlik zaiflashadi. Bunday muhitda turli tashqi ta’sirlar uchun jamiyat kayfiyatiga ta’sir o‘tkazish osonlashadi.

Mustaqillikni asrash faqat davlat institutlarining vazifasi emas. U har bir fuqaroning ichki pozitsiyasi, mas’uliyati va daxldorlik hissi bilan ham mustahkamlanadi. O‘zini jamiyat va mamlakat kelajagiga daxldor deb bilgan inson axborotni ham, voqelikni ham shunchaki qabul qilmaydi, uni tahlil qiladi, solishtiradi va o‘z xulosasini chiqaradi. Befarqlik esa insonni tayyor qarashlar va tashqi ta’sirlar oldida zaiflashtiradi.

Ba’zan o‘ylab qolaman: mustaqillikni yo‘qotish doimo katta siyosiy voqea, keskin burilish yoki ochiq inqiroz shaklida namoyon bo‘ladimi? Aslida, har doim ham unday emas. Ba’zan u inson va jamiyat ongidagi sezilmas o‘zgarishlardan boshlanadi. Avvalo, fikr mustaqilligi susayadi. Keyin o‘z pozitsiyasiga ishonch zaiflashadi. Oxir-oqibat jamiyat o‘zining aniq maqsadi va umumiy yo‘nalishini yo‘qota boshlaydi. Shu ma’noda, mustaqillikning eng muhim kafolatlaridan biri mustaqil fikrlaydigan va o‘z qarorining mas’uliyatini his qiladigan fuqarodir.

Bugungi eng muhim vazifalardan biri jamiyatda daxldorlik madaniyatini shakllantirish. Buni faqat qonun yoki ta’lim orqali emas, avvalo, hayotiy namuna orqali qaror toptirish mumkin. Boladan kattagacha inson atrofidagi munosabat, mas’uliyat va adolat muhitini ko‘rib, shunga qarab o‘z qarashini shakllantiradi. Agar jamiyatda daxldorlik qadrlansa, u avloddan avlodga o‘tadi. Befarqlik odatga aylansa, uni bartaraf etish tobora qiyinlashadi.

Bir so‘z bilan aytganda, globallashuv insoniyat oldida beqiyos imkoniyatlarni ochib berayotgan bir paytda inson va jamiyat zimmasiga yanada katta ma’naviy hamda intellektual mas’uliyat yuklamoqda. Dunyo bilan qanchalik ochiq munosabatda bo‘lmaylik, tashqi aloqalar qanchalik kengaymasin, o‘zligimiz, mustaqil fikrimiz va ichki birligimizni saqlash barqaror taraqqiyotning muhim shartlaridan bo‘lib qolaveradi.

Zero, mustaqillikning eng ishonchli qal’asi chegaralarda emas, avvalo, inson ongida quriladi. Uni mustahkamlaydigan kuch esa daxldorlik. O‘z hayoti, oilasi, jamiyati va yurti kelajagiga daxldorlikni his qilgan inson befarq tomoshabin bo‘lib qolmaydi. U axborotni saralaydi, voqelikni tahlil qiladi, muammodan qochmaydi va o‘zgarishlarga o‘z hissasini qo‘shishga intiladi.

Shu ma’noda, mustaqillikni asrash faqat uning tarixini yod etish emas, uni har kuni o‘z mas’uliyatimiz, tafakkurimiz va amaliy harakatimiz bilan mustahkamlab borishdir. Bugungi avlodning eng katta burchi ham ana shunda: bizga meros mustaqillikni shunchaki saqlab qolish emas, uni fikri erkin, ma’naviyati mustahkam va kelajagiga daxldor avlodga munosib holda yetkazish.

BILIM VA MALAKA – RIVOJLANISH KALITI



Dilnoza G‘ANIYEVA,
texnika fanlari doktori

Munosabat

Bundan o‘ttiz besh yil muqaddam xalqimiz o‘z xohish-irodasi va qat’iyati bilan davlat mustaqilligini qo‘lga kiritganini shukr va iftixor bilan eslaymiz. Istiqlol tufayli milliy davlatchiligimiz mustahkamlandi, ona tilimiz, tariximiz, ma’naviy qadriyatlarimiz va buyuk ajdodlarimiz merosiga munosabat yangi bosqichga ko‘tarildi. Eng muhimi, O‘zbekiston o‘z taraqqiyot yo‘lini mustaqil belgilaydigan, xalqaro maydonda o‘z ovozi va pozitsiyasiga ega mamlakatga aylandi.

Prezidentimiz 28-avgust kuni istiqlol shodiyonasi munosabati bilan o‘tkazilgan bayram tadbirida so‘zlagan nutqida ayni jihatlarga to‘xtalar ekan, o‘ttiz besh yillik mustaqil taraqqiyot yo‘li xalqimizga muhim bir haqiqatni o‘rgatganini — xalq va davlat yagona maqsad yo‘lida birlashib, astoydil harakat qilsa, zabt etib bo‘lmaydigan marraning o‘zi yo‘qligini ta’kidladi. Mazkur g‘oya, shubhasiz, bugungi taraqqiyotimizning ham ma’naviy tayanchidir.

Davlatimiz rahbari, shuningdek, ta’lim sohasidagi o‘zgarishlarga alohida e’tibor qaratdi. Bugun oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar soni 1 million 600 mingga yetgani qayd etildi. Talabalarning yarmidan ko‘pini xotin-qizlar tashkil etmoqda. Prezidentimiz buni Uchinchi Renessansning o‘ziga xos qiyofasi sifatida baholab, bilimli qiz — bilimli oila, bilimli avlod va ma’rifatli jamiyat ekaniga urg‘u berdi. Kelgusi yillarda esa kamida 10 ta universitetimizni dunyoning eng yetakchi oliygohlari 1000 taligiga kiritish maqsad qilib olindi. Bu vazifa, o‘z navbatida, oliy ta’lim muassasalari zimmasiga ta’lim sifati, ilmiy salohiyat, xalqaro hamkorlik va boshqaruv samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha katta mas’uliyat yuklaydi.

Shuningdek, davlatimiz rahbari “Biz ta’lim bilan bir qatorda ilm-fan, zamonaviy texnologiya va innovatsiyalarni ham taraqqiyotimizning hal qiluvchi omili deb bilamiz”, deya ta’kidladi. Bu fikr bugungi global raqobat sharoitida mamlakatimizning qaysi yo‘ldan borishini aniq ko‘rsatib turibdi. Jumladan, AT, sun’iy intellekt va kreativ iqtisodiyot yo‘nalishlariga yangi sur’at berish orqali 10 million yoshni raqamli industriya va kelajak kasblariga olib kirish maqsadi belgilangan. Demak, universitetlarda yaratilayotgan bilim real iqtisodiyot va ishlab chiqarish ehtiyojlari bilan uyg‘unlashishi, ilmiy g‘oya esa imkon qadar amaliy natijaga aylanishi zarur.



Taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasi jamiyat barqarorligi faqat mukammal qonunlar bilan emas, balki aholining qonunbuzarlik, adolatsizlik va turli qing‘irliklarga nisbatan murosasiz munosabati bilan ham ta’minlanishini ko‘rsatadi. Ya’ni jamoatchilik muammoga befarq qaramaydi, qonun buzilganda “bu mening ishim emas”, demaydi va o‘z fuqarolik pozitsiyasini ochiq namoyon etadi. Bunday daxldorlik muhiti jamiyatda o‘zaro ishonch va mas’uliyatni mustahkamlaydi.

“ Intiluvchan va tirishqoq o‘g‘il-qizlarni qo‘llab-quvvatlash uchun har yili 20-25 trillion so‘m mablag‘ yo‘naltirilayotgani ham bejiz emas. Xalqaro fan olimpiadalari, tanlov va festivallarda yuqori natijalarga erishayotgan yoshlarimiz yangi O‘zbekiston yulduzlari va kelajak bunyodkorlari sifatida e’tirof etilmoqda. Bunday yuksak ishonch yoshlar uchun ham katta mas’uliyat va sharaf bo‘lmog‘i lozim.

Zotan, Prezidentimiz mamlakatimiz taraqqiyotning mutlaqo yangi davriga qadam qo‘yayotganini, kelgusi o‘n yillik O‘zbekiston uchun milliy yuksalish davri bo‘lishini ta’kidladi. Shu maqsadda inson qadrini yanada yuksaltirishga qaratilgan yettita milliy dastur amalga oshirilishi belgilandi. Ularning birinchisi bilim va malakani kelgusi taraqqiyotimizning asosiy kapitaliga aylantirishga qaratilgani alohida diqqatga molik. Bu esa, eng avvalo, o‘ziga ishongan, intiluvchan yoshlarning salohiyatiga bog‘liq.

YANGI O‘ZBEKISTON
yuz.uz_news yuz.uz_news
2026-yil 4-sentabr, 183-son



Yangi O‘zbekiston ruhi

35 YIL: TARIXIY ANTANA

Akrom MALIK,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori



Inson vatan va xalq tashvishidan, diyonat va adolat g‘amidan yiroqda yashashi mumkin emas. Kimki elning musibatidan yig‘lamasa, odamlar azobidan iztirob chekmasa yoki yurtning bayramidan sevinmasa, ulusning yutug‘idan quvonmasa, uning odamiyligida juda katta bo‘shliq mavjudligi aniq. Tirik insongina millat va davlat, el va ulus bilan birga yashaydi. Odamlarning g‘ami sababli g‘am chekib, sevinchlari sababli shodlanadi. Chunki bunday tuyg‘u fitriy tuyg‘ulardan biri bo‘lib, kishining o‘z uyi, ko‘chasi, mahallasi, qishloq yoki shahrini sevishi, shu yerda odamlar bilan qalbi payvandlashib ketishi odamiylik taqozosidir.





Bundan kelib chiqadiki, bugun o‘lkamizda yashayotgan hech kim millat va davlatning biror kuni, biror ishiga befarq bo‘lishi mumkin emas. Ayniqsa, bu bayram bo‘lsa, bo‘lib ham Mustaqillik bayrami bo‘lsa, mutlaqo boshqa mohiyat, boshqa bir ahamiyat kasb etadi.

Kuni kecha mustaqilligimizni o‘ttiz beshinchi marta bayramu shodiyona qilib nishonladik. Bayramning o‘zgacha ruhiyat va quvvat bilan o‘tgani har bir qalb va aql egasiga ma’lum. Davlatimiz rahbari ishtirokidagi eng katta tantana, asosan, ikki qismdan iborat bo‘ldi: Prezidentimiz nutqi hamda bayram tadbiri. Bayram namoyishi esa aniq va ravshan ikki qismga ajraldi, nazarimizda: birinchi qism vatanimiz tarixidagi davlatlar zikr etildi va ularning bayroqlari hilpiradi, kechmishimiz hikoya qilindi. Mustaqil yangi O‘zbekiston uch ming yillik davlatchilikning davomchisi ekani ko‘rsatildi. Ikkinchi qism zamonaviy xonanda va boshqalarning chiqishlaridan iborat bo‘ldi.

Prezidentimizning bayramda so‘zlagan tarixiy nutqi 35 yillikning, balki oxirgi 10 yillikning xalq oldidagi hisoboti bo‘lish bilan birga davlat siyosatining kelgusi yillardagi yo‘nalishlarini belgilab beradigan konsepsiyaga aylandi. Uning mohiyatini bir qancha muhim tezislarga ajratgan holda chuqurroq anglash mumkin. Xususan, birinchi asosiy tezis mustaqillik g‘oyasining asosidan iborat bo‘lib, u o‘ziga xos falsafiy mazmunga ham egadir. Ya’ni Prezidentimiz mustaqillik ne’matini bergan Parvardigorimizga cheksiz shukronalar bo‘lsin deya istiqlol ne’mati, avvalo, Yaratganning in’omi ekanini ta’kidladi. Agar u qodir qilmaganida edi, bu ne’matga erishmoq mumkin bo‘lmasdi. Ushbu yondashuv davlat mustaqilligi haqidagi e’tiqodning o‘zagi ajdodlarimiz suyangan poydevor bilan birligini va mustahkamligini ifodalaydi.

Ikkinchi falsafiy nuqta shundaki, istiqlol bunyodkori va mustaqillik yutuqlari muayyan shaxs yoki guruhga tegishli deya talqin etilmadi. Balki istiqlolimiz ijodkori va haqiqiy bunyodkori xalq ekani ta’kidlanishi, barcha g‘alaba va yutuqlar xalqning salohiyati hamda intilishlari mahsuli hisoblanishi e’tirof etilishi xalq davlatning asosi va ildizi, davlat esa elning himoyachisi, xizmatkori va rahbari ekani haqidagi haqiqatni yuzaga chiqaradi.

Uchinchi muhim masala davlat va xalqning birlashuvi falsafasidir. Davlat va xalq jipsligi, o‘zaro ishonchi har qanday zafarning kaliti va boshlanish nuqtasi bo‘lib, bu ikki kuch ajralsa, hech bir maqsad hosil bo‘lmaydi.

To‘rtinchi ahamiyatli jihat, yangi O‘zbekiston davlati va xalqi buyuk tarixning merosxo‘ri hamda ulug‘ davlatlar, ulkan shaxsiyatlarning vorisi ekanining eslatmasidir.

Nutqning beshinchi qismi amalga oshirilgan ishlar tahlilidan iborat bo‘lib, unda Prezidentimiz majburiy mehnatga barham berilgani, iqtisodiy o‘sish natijalari, kambag‘allikka qarshi kurash, yoshlarning sifatli ta’lim olishi, tibbiyotga berilayotgan e’tibor, ma’naviyatning qo‘llab-quvvatlanishi hamda sportdagi yutuqlarni ta’kidlab o‘tdi.

Nutqning oltinchi qismida istiqboldagi ishlarning asosiy yo‘nalish va g‘oyalari e’lon qilindi. Bunda ta’limni yaxshilash, tibbiyotni rivojlantirish, iqtisodiyotda barqaror o‘sish, tabiatni sifatli himoya qilish, sudlar mustaqilligi va qonun ustuvorligini mustahkamlash, mahallaning hayotdagi amaliy o‘rnini kuchaytirish, shuningdek, O‘zbekiston nufuzini tinchlik, do‘stlik va bag‘rikenglik tamoyillari asosida yuksaltirish bosh maqsad sifatida ko‘rsatildi.

Albatta, tabrik nutqlari, birinchi galda, siyosiy ahamiyatli hodisadir, lekin O‘zbekiston Prezidentining ushbu nutqi hayot haqiqatlarining ko‘zgusi ekani bilan ham ta’sirchanlik kasb etdi. Haqiqatan, yurtimizda oxirgi o‘n yilda ro‘y berayotgan jadal rivojlanish — odamlar hayoti farovonlashgani, ishlab chiqarish va savdo-tijorat o‘sgani, eng asosiysi, davlat idoralarining xalq bilan ishlayotgani hamda biror murojaatning chetda qolmayotganini rad etib bo‘lmaydi. Birgina bu tasnif bilan barcha yutuqlarni qamrab olish imkonsiz ekani tabiiy.

Yarq etib ko‘rinib turgan haqiqatlardan biri xalq ruhi ko‘tarilgani hamda xalqda chindan jipslashish alomatlari paydo bo‘lganidir. Prezidentimiz butun kuch-quvvati, iste’dodi va salohiyati bilan odamlarni birlashtirishga, ularning uxlab yotgan qobiliyat va imkoniyatlarini uyg‘otishga tirishmoqda. Shaxsiy kuzatuv va xulosamga ko‘ra, Prezidentimiz mamlakatimizdagi har bir insonning taqdiri va qismati haqida qayg‘urib ishlamoqda. Hech kimning dilini og‘ritmaslikka, ayni paytda ishlarni aniq va tizimli yo‘lga qo‘yishga, uyg‘oq nazorat bilan maqsadga erishishga intilmoqda. Ya’ni siyosiy boshqaruvda bo‘lsin, qarorlar ijrosini ta’minlashda bo‘lsin, vazifalarni taqsimlashda yoki pirovardida mukofotlashda bo‘lsin — barchasida teran hikmat namoyon bo‘lmoqda. Prezidentimiz siyosiy ustunligini namoyish qilish haqida umuman o‘ylamaydi, balki faqat oldimizga qo‘yilgan ulkan maqsadlarga erishishni xohlaydi. Maqsadga erishish uchun esa odamlarni azoblash yoki qo‘rqitish shart emas ekan. Balki ularni ishontirish, munosib insonlarni o‘z o‘rniga qo‘yish, mehnat va fidokorlikni rag‘batlantirish, odamlar bilan kirishib, dildan muloqot qilish, kamtarlik va odamiylikni bosh mezon deb belgilab, unga amal qilish, ayni paytda temirdek qattiq intizom lozim. Men aynan shu jihatlarni ko‘ryapman.

Endi bayramning dastlabki kompozitsiyasi va uning mohiyatidagi xabarnoma haqida so‘z yuritsak.

Bayramda Vatanimizning uch ming yillik tarixi varaqlandi. Ayniqsa, tarixiy davlatlarimizning bayroqlari ko‘tarilgani, ularning nomi birma-bir zikr etilgani tantananing g‘oyaviy, siyosiy va falsafiy cho‘qqisi bo‘ldi. Bu kompozitsiya jarayonida aytilgan so‘zlar o‘zining xalqchilligi va asosiysi, millatning yillar mobaynida ko‘ngli tubida yashirinib yotgan dard hamda iftixorlari ifshosi ekani bilan ham dolzarbdir. Ayni shu qism o‘zbek san’atining asl mohiyati va g‘oyasi nima bo‘lishi kerakligini ko‘rsatdi. Ijodkor va qalamkashlar aslida nimani kuylashlari lozimligini bildirdi, shuningdek, butun dunyoga yangi O‘zbekistonning tarixiy ildizini, g‘oyaviy asosini, tafakkuri va qalbi ozod ekanini jar soldi. Zotan, 35 yil ichida birinchi marta bunday bilgi va belgilar bilan istiqlol sahnasining porlashi ilk bora sodir bo‘ldi.

Bu fenomenning uch asosiy jihatini yodda saqlash zarur. Birinchidan, istiqlol bizga begona bir g‘oya emas, bizning jonimiz istiqlol deya tirik, tomirimizda istiqlol degan qon oqadi, yuragimiz istiqlol deb uradi. Ikkinchidan, yoshlar istiqlol qadrini bilishlari va ozodlik g‘oyasini anglashlari, unga sodiq qolib, kelajakda xalqni, millatni va davlatni saqlab qolish hamda yuksaltirish uchun bu tuyg‘ularni o‘zlashtirishlari, ruhiga, hatto sochlarining tolalariyu hujayralarigacha singdirmoqlari shart. Buning uchun tarix haqiqati bilan yashash va nafas olish, tarix sharafi bilan kelajakka, yuksalishga qadam qo‘ymoq shart. Uchinchidan, butun dunyo, O‘zbekistonning o‘zini anglaganini, siyosiy va tarixiy yo‘lini tanlab olganini, uning qanday chuqur mazmuni hamda qanday yengilmas va erkin ruhi borligini bilsin va hech qachon yoddan chiqarmasin.

Albatta, bu shakldagi xulosalarni yana uzoq davom ettirish mumkin.

Mustaqillikning 35 yillik to‘yi chindan ham O‘zbekistonda yangi yuksalish, ishonch va e’tiqod davri boshlangani jarnomasi bo‘ldi. Prezidentimizning tarixiy nutqi yurtdoshlarimizning samimiy va sadoqatli, muhabbatli va jasoratli farzandlari qalbida “Bu ulkan ishga qanday qilib hissamni qo‘shsam ekan, qanday qilib Prezidentimizning olamshumul g‘oyalari amalga oshmog‘i uchun xizmat qilsam ekan?” degan tuyg‘ularni jo‘shtiradi, ularni Vatan va millat uchun shay holatga keltiradi.

Kechagi ezgu niyat — bugungi haqiqat



PURVIQOR TOG‘LARDEK BO‘Y CHO‘ZDI DILLAR

Sherzod Qoraboyev olgan suratlar.

Purviqor tog‘lar bag‘rida joylashgan Shohimardon qishlog‘i o‘ziga xos ohanrabosi, tarovati bilan ajralib turadi. Betakror tabiati, zilol suvi, toza havosi, Oqsuv va Ko‘ksuv soylari, mag‘rur archazorlari dilingizga huzur bag‘ishlaydi. Tanangiz rohatlanadi, ruhingiz yengil tortib, musaffo havodan to‘yib-to‘yib nafas olasiz.

Keyingi yillarda O‘zbekistonning ochiq do‘stona siyosati sabab qo‘shni davlatlar bilan munosabatlar tubdan yaxshilandi. Xususan, Qirg‘iz Respublikasi bilan aloqalarimiz mutlaqo yangi bosqichga chiqdi. Chegaralardan o‘tish tartibi soddalashtirildi, qulayliklar yaratildi. Bugun Shohimardon qishlog‘i sari oshiqayotgan sayohatchi-yu ziyoratchilar safi tobora kengaymoqda. Ilgari bu anklav hududga borib kelish imkonsiz edi. Hozir masalalar hal etilib, aholi manfaati yo‘lida qulayliklar yaratilyapti. Xalqimiz esa istiqbolli loyihalar, bunyodkorliklar haqida to‘lib-toshib gapirmoqda.

“Ming bor eshitgandan ko‘ra, bir bor ko‘rgan afzal” naqliga amal qilib, dam olish kunlari so‘lim qishloq bo‘ylab safarga chiqdik. Shu o‘rinda bir gap: ilgari bu yerga borish uchun faqat “Vodil — Qadamjoy” chegara posti orqali o‘tilgan. Endi Rishton, Quvasoy chegara hududlaridan ham bu joylarga borib kelish mumkin.

“Rishton — Qaytmas” chegara postiga yetib kelganimizda soat millari kunduzgi 12:00 ga bong urdi. Nari borsa, yigirma daqiqada Qirg‘izistonning Qadamjoy tumani hududiga o‘tdik. Piyoda bo‘lganimiz bois, Qadamjoy bilan Shohimardonni bog‘lovchi “Oq qiya” chegara postiga qadar mashina yolladik. Bizga Kamoliddin degan qirg‘iz o‘g‘loni hamrohlik qildi. Haydovchi yigit xushchaqchaq, so‘zamol ekan. Suhbat bilan bo‘lib, ikki chegara oralig‘idagi qariyb 100 kilometr yo‘lni qanday bosib o‘tganimizni ham bilmay qolibmiz.

— Rishton tumanidagi Yoyilma qishlog‘ida yaqin qarindoshlarimiz yashaydi, — deydi Kamoliddin. — O‘zaro bordi-keldi munosabatlaridagi qiyinchiliklar, sun’iy to‘siqlar tufayli 15 yil yaqinlarimiz bilan diydorlasha olmadik. Yo‘llar ochilib, opamning uyiga mehmonga borganimda jiyanimni tanimaganman. Chunki tug‘ilganidan buyon ko‘rmaganmiz-da. Endi hammasi yaxshi tarafga o‘zgardi. Vaqt, imkon bo‘ldi deguncha, Yoyilmaga mehmonga boramiz. Qarindoshlarimiz ham tez-tez kelib turadi. “Mehr — ko‘zda”, deganlari rost ekan.

“Oq qiya” chegara postidan ham ortiqcha qiyinchilik va to‘xtalishsiz o‘tib, Shohimardonga yetib kelganimizda soat millari 14:00 ni ko‘rsatdi.

— Bir necha yil avval bu yerga sayohatga kelganimizda chegaradan o‘tish uchun olti soat vaqt sarflagandik. Qaytishda ham shunday holat takrorlangach, bu yerga kelmay qo‘ygandik. Mana ko‘z yumib-ochguncha manzilga yetib keldik. Qilsa bo‘larkan-ku, — deydi hayratini yashira olmagan hamrohim. — O‘zbekiston fuqarolarining qo‘shni mamlakatda bo‘lib turish muddati 5 kundan 15 kunga uzaytirildi. Chegaradan o‘tishda qo‘shimcha yo‘laklar tashkil qilingani ayni muddao bo‘ldi.

Shohimardon qishlog‘i bugun har qachongidan-da gavjum, fayzli. Ko‘chalarni kengaytirish, yoritqichlar o‘rnatish, sayyohlar va ziyoratchilar uchun zaruriy infratuzilmalarni rivojlantirish bo‘yicha ishlar jadal davom etmoqda. Qishloq markazidagi istirohat bog‘ini zamonaviy turizm maskaniga aylantirish, bog‘ hududida amfiteatr, dam olish maskanlari qurish, aholi farovonligini oshirish yo‘lida istiqbolli loyihalar amalga oshirilyapti.



Bolaligimizda yozgi ta’tilda oilaviy bu go‘zal maskanga ziyoratga kelganimizda dorboz-u polvonlar o‘yinlari, san’atkorlarning dilrabo qo‘shiqlarini maroq bilan tinglab, tomosha qilganimiz kechagidek yodimda. Shu asnoda “Hazrati Ali” ziyoratgohida obodonlashtirish ishlari bilan mashg‘ul bir guruh quruvchi e’tiborimizni tortdi.

— Maqbarani ta’mirlash, ziyoratchi va sayohatchilar uchun munosib shart-sharoitlar yaratib berishga hissa qo‘shayotganimizdan faxrlanamiz, — deydi “Ijod” xususiy korxonasi ish boshqaruvchisi Azizbek Olimov. — Ta’mirlash ishlari milliy me’morchilik an’analariga xos uslubda bajarilyapti. Bu yerga qo‘yilayotgan har bir g‘isht, o‘rnatilayotgan koshinlar muhtasham inshootni uzoq saqlash va butun dunyoga ko‘z-ko‘z qilish imkonini beradi.

Maqbaraga tutash hududda joylashgan Hamza memorial muzeyida boshlangan ta’mirlash ishlari poyoniga yetib, uni yangi eksponat, manbalar bilan boyitish choralari ko‘rilmoqda.

— Prezidentimizning shu yil 12-yanvardagi “Farg‘ona” turistik-rekreatsion zonasini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori viloyatimiz sayyohlik salohiyatini yangi bosqichga olib chiqishda o‘ziga xos imkoniyat eshiklarini ochdi, — deydi Farg‘ona viloyati turizm boshqarmasi marketing bo‘limi mutaxassisi Nodira Zokirova. — Ayni kunlarda “Shohimardon — Yordon” umummavsumiy xalqaro kurort zonasi, “Vodil” malina agroturizm klasteri, “Chimyon” sanatoriy-kurort zonasi, “Avval” ko‘ngilochar turizm majmualari tashkil etish borasida amaliy ishlar boshlab yuborilgan. Shu kunga qadar “Shohimardon” va “Yordon” mahalla fuqarolar yig‘inlari hududidagi mehmonxonalar, mehmon uylari, hostel va boshqa xizmat ko‘rsatish shoxobchalari qonunchilikda belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tgani, tegishli muvofiqlik sertifikati mavjudligi hamda yagona reyestrga kiritilgani o‘rganilib, 20 dan ortiq oilaviy mehmon uyi faoliyati ro‘yxatga olindi.

Xorijlik investorlar tashabbusi bilan Shohimardon va Yordon qishloqlari o‘rtasida zamonaviy dor yo‘li, shisha yo‘lak kabi qator infratuzilmalar barpo etishni qamrab olgan loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari belgilangan. Bu xalqaro jozibaga ega turizm maskanlari ish samaradorligida o‘ziga xos o‘ringa ega. Istiqbolli rejalar dasturiga ko‘ra, 2026-2029-yillarda umumiy qiymati 4,1 trillion so‘mlik 48 ta manzilli investitsiya loyihasi amalga oshiriladi. Natijada 2500 ta yangi ish o‘rni ochiladi.

— Oloy tog‘ tizmalariga tutashgan maskanda 11 mingdan ortiq odam istiqomat qiladi, — deydi “Shohimardon” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi Nodirbek Hidoyatov. — Ikki mamlakat Prezidentlarining amaliy sa’y-harakati bilan o‘zbek va qirg‘iz xalqlari Shohimardon, Yordon, Ko‘li Qubbon, Qadamjoyga kelib, dam olishi, ziyorat qilishi uchun munosib shart-sharoit yaratib berildi. Chegaradan ID karta orqali o‘tish tartibi amaliyotga kiritilib, qo‘shimcha xizmatlar yo‘lga qo‘yildi. Bu fuqarolarimizga emin-erkin sayohatga kelish imkonini beryapti. Mahallamizdagi 60 dan ortiq mehmon uyi, 30 dan ziyod dala hovlida sayyohlar uchun munosib shart-sharoit yaratildi. Ishlar bu bilan cheklanib qolayotgani yo‘q. Sayohatchilarga qo‘shimcha xizmat turlarini taklif etish, yangi infratuzilmalar faoliyatini kengaytirish bo‘yicha “yo‘l xaritalari” ishlab chiqildi. Loyiha tashabbuskorlari har jihatdan qo‘llab-quvvatlanmoqda. Asosiy maqsad — sayohatchi va ziyoratchilar uchun munosib sharoit yaratish.

Chindan ham Shohimardon va Yordon qishloqlari tabiat mo‘jizasining o‘zginasi. Sayohatga kelganlar ana shu in’omdan kuch olib, ko‘nglini nurafshon qilmoqda. Tog‘ havosi, tabiiy giyohlardan oziqlangan chorva suti, qatiq, qaymoq, qurut, shifobaxsh tog‘ asali, sarxil mevalar qadim maskanning tarovatini dunyoga ko‘z-ko‘z qilmoqda.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-946.
29323 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Jonibek Alijonov
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33
E’lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98
E-mail: info@yuz.uz
Веб-сайт: www.yuz.uz: (71) 233-47-05
Devonxona va ishonch telefoni: (71) 233-56-60